

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TAHLIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

USMANOV G'YOSIDDIN MUROTJONOVICH

**ABDURAUF FITRAT ADABIY MEROSINI XORIJD A O`RGANILISHI VA ADABIY
TALQIN MASALALARI**

5A120101 – Adabiyotshunoslik (Tillar va tadqiqot yo`nalishlari bo`yicha)

**Magistr akademik darajasini olish uchun
taqdim etilgan dissertatsiya**

A V T O R E F E R A T I

Namangan – 2014

Dissertatsiya Namangan Davlat universiteti Filologiya fakulteti Ingliz tili va leksika-stilistika kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar: pedgogika fanlari nomzodi
Ubaydullaev Shuhrat

Opponent: filologiya fanlari nomzodi,
Karimov Raximjon

Taqrizchi: filologiya fanlari nomzodi,
Sidiqov Qosimjon Abilovich

Himoya 2014 yil _____oyining ____kuni soat____da Namangan Davlat universiteti Filologiya fakulteti Ingliz tili va leksika stilistika kafedراسи DAK xay`ati yig`ilishida o`tkaziladi.

Dissertatsiya bilan Namangan Davlat universiteti Ingliz tili va leksika- stilistika kafedراسida tanishish mumkin.

Davlat attestatsiya xay`ati kotibi:

X.Muxammadieva

**ABDURAUF FITRAT ADABIY MEROSINI XORIJDA
O'RGANILISHI VA ADABIY TALQIN MASALALARI**

Mundarija

KIRISH.....	2
I BOB O'ZBEK JADID ADABIYOTINI XORIJ ADABIYOTSHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI.....	11
I.1 Jadid adabiyotini xorijda o'rganilishi yuzasidan tahlillar.....	11
I.2. Horijlik adabiyotshunos olimlarning jadid adabiyoti nomoyandalari adabiy merosini organishiga undagan omillar.....	20
1.3. Abdurauf Fitrat faoliyatining o'rganilishi: o'ziga xos yondashuv va qarashlar.....	28
II-BOB ABDURAUF FITRATNING IJODIGA XORIJLIK OLIM VA ADABIYOTSHUNOSLARNING QARASHLARI.....	38
II.1.Sovuq urush davri adabiyotini xorijlik olimlar tomonidan qilingan tadqiqi.....	38
II.2. A. Fitrat xayoti va ijodini xorijda o'rganilishi xususida.....	46
II.3. A. Fitrat ijodiga xorijlik olimlarning qarashlari (Amerikalik olim Yedvard Ollvort va Yapon olimi Xisao Ko'matsu tadqiqotlari xususida).....	53
III-BOB ABDURAUF FITRATNING INGLIZ TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARI TAHLILI.....	65
3.1 Abdurauf Fitratning "Abdulfayzxon" dramasini Shon Tomas Lions tomonidan qilingan tahlili.....	65
3.2. Abdurauf Fitratning "Xindistonda bir farangi ila Buxorolik bir muddarisning bir nechta masalalar xamda usuli jadida xususida qilgan munozarasi" dramasi va tarjimasi haqida.....	69
3.3 Salih Bishakchi tomonidan A. Fitrat asarlarining qiyosiy tahlili.....	76
UMUMIY XULOSALAR.....	82
SUMMARY.....	85
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	88

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasining asoslanishi va dolzarbligi. Tarixga hurmat tuygʻusi, oʻtmishni oʻrganish xalqning oʻzligini anglashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli uning maʼnaviy hayotida yangi davr – ruhiy poklanish va uygʻonish bosqichi boshlandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov toʻgʻri taʼkidlaganidek, “Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo boʻldiki, biz bosib oʻtgan yoʻllarimizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, oʻtmishimizdagi boy anʼanalari-mizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmogʻimiz kerak”¹.

Xalqning madaniy qadriyatlari va maʼnaviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli maʼnaviyat manbai sifatida xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, Oʻzbekiston xalqi ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelgan oʻz tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda oʻziga xos anʼanalarini saqlab qolishga muvaffaq boʻldi. Shuni inobatga olgan holda Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish oʻrinlidir: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning maʼnaviyatini uning tarixi, oʻziga xos urf-odat va anʼanalari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib boʻlmaydi. Bu borada, tabiiyki, maʼnaviy meros, madaniy boyliklar, koʻhna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri boʻlib xizmat qiladi”².

"O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida 6-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda davlat va jamoat arboblari, fan, madaniyat va san'at namoyandalari, poytaxt jamoatchiligi, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlarning elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1995. – B. 176.

² Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Manaviyat, 2008. – B. 29–30.

etish, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash, Vatanimiz taraqqiyoti va turmushimiz farovonligini yuksaltirishning huquqiy kafolati bo'lib kelayotganini ta'kidladi.

Konstitutsiyamiz normalarining hayotga tatbiq etilishi jamiyatimizda qaror topgan tinchlik va hamjihatlikda, hayotimizga yangicha mazmun bag'ishlayotgan islohotlar samarasida, odamlarimizning o'zgarib borayotgan ongu-tafakkurida, har bir oila, har bir inson hayotida o'z ifodasini topmoqda.

Ushbu tarixiy sanani bayram qilar ekanmiz, milliy davlatchiligimiz asoslarining mustahkamlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining izchil rivojlanishi, aholi turmush darajasining yuksalishi, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatlardagi o'rnini va nufuzini ortishi - bularning barchasida Asosiy qonunimizning ahamiyati yuksak ekanligini yanada teran anglaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bayramining yana bir muhim jihati, shu kuni xalqimizning ezgu intilishlarini ifoda etadigan, jamiyatimiz rivojiga xizmat qiladigan eng ustuvor yo'nalishlar belgilab olinadi va kelgusi yilga shunga muvofiq nom beriladi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2013-yil Obod turmush yili deb e'lon qilingan edi.

"Obod turmush yili" Davlat dasturi asosida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirildi.

Xalqimizning hayot sifati va darajasini yuksaltirish, maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash, yangi uy-joylar va infratuzilma ob'ektlarini qurish, mahallalarni obod etish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini yanada yuksaltirish, orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Vatanimizni har tomonlama obod qilish, xalqimiz yanada tinch va farovon yashaydigan hayot barpo etish yo'lidagi bunday ishlar izchil davom etmoqda.

Ushbu yig'ilishda Prezidentimiz Islom Karimov kirib kelayotgan yangi 2014-yilni mamlakatimizda "**Sog'lom bola yili**" deb e'lon qilishni taklif etdi. Davlatimiz rahbarining bu taklifi yig'ilganlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan qo'llab-quvvatlandi³.

XIX asr oxiri —XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashagan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o'tkazish hamda pirovardida erk va hurriyat g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o'zining shakllanish yo'lini bosib o'tar ekan, asr boshlaridan 1917 yil fevral inqilobiga qadar bo'lgan birinchi bosqichida nafaqat ma'rifiy, balki ijtimoiy harakat sifatida ham uzil-kesil rasmiylashdi. Fevral inqilobining ro'y berishi va chor hokimiyatining falajlanishi bilan u o'zining pirovard siyosiy maqsadi — mustaqil davlatni barpo etish g'oyasini amalga oshirishga kirishdi. Lekin bu harakatning kuchli va birlashgan partiya yo tashkilotga ega bo'lmaganligi hamda xalq ommasini hali uyg'ota olmaganligi sababli uning mustaqil o'zbek davlatini barpo etish orzusi ro'yobga chiqmadi. Hali oyoqqa turib ulgurmagan yosh sovet davlati Turkiston Muxtoriyat hukumatini go'daklik paytidayoq majaqlab tashladi.

O'z oldilariga Turkiston xalqlarining taqdiri uchun muhim ahamiyatga molik vazifani qo'ygan jadidlar 1906 yil yanvarida Peterburgda bo'lib o'tgan Umumrusiya musulmonlari qurultoyiga o'z vakillarini yashirincha yuborib, Rossiya tasarrufida yashagan boshqa musulmon xalqlar va ularning peshqadam arboblari bilan aloqa o'rnatmoqchi bo'lganlar. Bu vaqtda o'zbek jadidlari, Qozon tatarlari kabi, har tomonlama shakllangan milliy dasturlariga ega bo'lgan, lekin yaqin kelajakda rus istibdodiga jiddiy zarba berish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Ammo, ularning bu niyatlaridan xabardor bo'lgan bolsheviklar 1919 yildagi Osipov qo'zg'olonidan keyin ko'plab jadidlarni qirib tashladilar⁴. O'z

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 19 fevraldagi PQ-2133-son qarori/ www.lex.uz

⁴ N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. —Toshkent: O'zbekiston, 2008. —B. 8.

mustabid davlatining dushmani deb bilgan Buxoro amiri ham jadidlarni qirishda bolsheviklardan zarracha orqada qolmadi.

Jadidchilik harakatining paydo bo'lish va yakunlanish tarixi, shubhasiz, faqat shu nuqtalardangina iborat emas. O'zbekistonning yaratilajak yangi tarixida xalqimiz hayotining bu muhim davrini to'g'ri va har tomonlama mukammal yoritish uchun nafaqat respublikamizning ochiq va yopiq arxivlari, balki, birinchi navbatda, Moskvadagi FSB va boshqa arxivlarda saqlanayotgan hujjatlarni puxta o'rganishimiz, ularda mavjud bo'lgan fakt va ma'lumotlardan to'g'ri xulosalar chiqara olishimiz lozim. Bunday yangi ma'lumotlarni xorijda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ishlaridan ham topishimiz mumkin.

Hozirgi kunda ingliz tili mutaxassislari tayyorlashda tarjima nazariyasi va adabiyoshunoslik nazariyasi predmetlarining o'rnini hech kim inkor yetmaydi va ingliz tili mutaxassisi bo'lib oliy o'quv yurtini tugayotgan talaba bu kabi mutaxassislik fanlarini yaxshi o'zlashtirishi zamon talabi yekanligi barchaga ma'lumdir.

Xorijlik adabiyoshunos va olimlarning bizning adabiyotimizga bo'lgan qiziqishlari ortdi. Ularning o'rgangan va tarjima qilgan ishlari turli nufuzli manbalarda ye'lon qilindi. Bu kabi ishlar qatoriga jadid namoyandalarining xayoti va ijodiga bo'lgan qarashlarni sanab o'tish o'rinli bo'ladi. Chunki, jadidchilarimiz ijodi va xayotiga bulgan yurtimizdagi e'tibor juda kattadir. Albatta bunday munosabatlar xorijlik olimlar tomonidan ham katta ahamiyat berilib kelmoqda.

Ana shunday millat uchun jon kuydirgan, o'zbek xalqini ma'rifatli bo'lishini chin yurakdan orzu qilgan va bu yo'lda tinimsiz samarali ishlarni amalga oshirgan jadid namoyandalaridan biri Abdurauf Fitratdir. Abdurauf Fitrat xaqida xorijdagi olimlar qarashlari va ijodi tahlili muhim va o'rganilishi talab jarayonlaridan biridir. Shu jihatdan qaraganda, ushbu mavzu ustida xorijlik olimlardan Yedvort Olvort, Adib Xalid, Shon Tomas Lion, Choy van Vu, Yedvard Said, Lidenberger va Uzbek olimlaridan Izzat Sulton, Axmad Aliev, Begali Qosimov, Hamidullo Boltabaev va boshqa yetuk olimlar izlanishlar olib borishgan. Xorijlik va o'zbek olimlari

bajargan izlanishlar o'rtasidagi mutunosiblikni aniqlash va ularni tahlil qilish Adabiyoshunoslik va tarjima nazariyasi fanlari uchun juda ahamiyatlidir.

Mana shu omillarini hisobga olgan holda Abdurauf Fitrat ijodiga doir mazkur kichik bir ilmiy tadqiqot quyidagi omillarga ko'ra dolzarb hisoblanadi:

Birinchidan, hozirgi kunga qadar o'zbek adabiyotining yirik nomoyandasi bo'lgan va milliy ma'naviyatimizga ulkan hissa qo'shgan Abdurauf Fitrat ijodini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlar uni to'laqonli o'rganish uchun yetarli emas;

ikkinchidan, Abdurauf Fitrat ijodiga doir qarashlar va fikr-mulohazalar aniq bir tartibga solinmagan;

uchinchidan, Abdurauf Fitrat ijodini o'rgangan xorijlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari va unga doir turli asarlar, ilmiy maqolalar hamda o'quv qo'llanmalar o'zbek adabiyotida deyarli o'rganilmagan;

to'rtinchidan, Sho'ro davri adabiyotida xorijlik olimlar tomonidan Abdurauf Fitrat ijodi bo'yicha qilingan tadqiqotlar o'zining munosib bahosini olmagan.

Tadqiqotning o'rganilish darajasi: Bugunning dolzarb masalalaridan biri milliy ma'naviyatimiz va madaniyatimizni yuksaltirish, bu sohalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan barcha omillarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini anglab olishdan ham iboratdir. Albatta, har bir xalq ma'naviyati va madaniyatini uning tarixi va adabiyotidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, har bir davr o'ziga xos iste'dod egalarini voyaga yetkazganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, adabiyotimiz tarixida shunday ijodkorlar mavjudki, ular nafaqat she'riy iste'dod sohibi, balki xalq tarixida ham o'ziga xos iz qoldirgan shaxs sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadilar. Husayniy, Navoiy, Bobur, Amiriy, Feruz kabi ijodkorlar faoliyati xalqimiz ma'naviyati, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega.

XX asr boshlarida Turkistonda mavjud siyosiy- ijtimoiy voqealar o'zbek adabiyotiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. 70 yil davom etgan sovet senzurasini sabab milliy tiklanishda yetakchilik qilgan Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat, Behbudiy singari ijodkorlar yaratgan badiiy asarlar tagzaminidagi chin mohiyat – Ozodlik mavzusidagi ijtimoiy– siyosiy g'oyalar butunlay inkor qilinib, ularga salbiy munosabat bildirilayotgan bir paytda Amerika o'zbekshunoslari birinchilardan bo'lib bu haqiqatlarning asl mohiyatini targ'ib qila boshladilar. Ular bunday hurfikrlarni xorijda turib aytganliklari haqiqatni bayon qilishlari uchun asos bo'lganligini ham ta'kid etmoq zarur. Ammo shunisi achinarliki, biz xorij olimlari tadqiqotlarini original manbalar emas, rus tiliga qilingan noto'g'ri tarjimalar asosida tahlil qilib, ularning “qarashlarini g'oyaviy va mafkuraviy dushmanlarimizning kirdikorlari va tuhmatlari, burjua g'animlarimizning nayranglari deb baholadik”⁵.

Tadqiqot ob'ekti. Abdurauf Fitrat asarlarining o'zbek tilidan ingliz, turk, xitoy, nemis tillariga qilingan tarjimalari hamda jadid namoyandalarining hayoti va ijodiga bag'ishlangan manbalar va maqolalar tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. O'zbek va ingliz tillaridagi Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi xaqida yozilgan manbalarni qiyosiy o'rganish va asar tarjimalarining tahlili.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

- 1) Abdurauf Fitratning hayoti va ijodini o'zbek adiblari tomonidan o'rganilishi;
- 2) Abdurauf Fitratning ijodini tahlil qilish;
- 3) Amerikalik olimlarning Abdurauf Fitrat hayoti va ijodiga bo'lgan qarashlarini o'rganish va aniqlash;
- 4) Xorijda Abdurauf Fitrat nashr etgan ijod namunalari haqida fikrlash;

⁵ Мирзаева З. И. Абдурауф Фитрат фаолиятининг ўрганилиши: ўзига хос ёндашув ва қарашлар / Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари ёш олимлар тадқиқотларида: асосий йўналишлар ва ёндашувлар. Республика ёш олимларининг аъъанавий иккинчи илмий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 187.

5) Abdurauf Fitratning “Xindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning bir nechta masalalar hamda usuli jadida hususida qilgan munozarasi” (Debate between a teacher from Bukhara and a European) dramasi tarjimasidan parchalar keltirish;

6) Abdurauf Fitratning “Xindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning bir nechta masalalar xamda usuli jadida hususida qilgan munozarasi” (Debate between a teacher from Bukhara and a European) dramasi tarjimasining xususiyatlarini o‘rganish;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Ushbu mavzu ustida xorijlik olimlardan Yedvort Olvort, Adib Xalid, Shon Tomas Lion, Choy van Vu, Yedvard Said, Lidenberger va Uzbek olimlaridan Izzat Sulton, Axmad Aliev, Begali Qosimov, Namidullo Boltabaev va boshqa yetuk olimlar izlanishlar olib borishgan. Xorijlik va o‘zbek olimlari bajargan izlanishlar o‘rtasidagi mutanosibligini aniqlash va ularni tahlil qilish Adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasi fanlari uchun juda ahamiyatlidir.

Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning asarlari, O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlari olindi. Xorijlik olimlardan Edvard Olvort⁶, Adib Xalid⁷, Shon Tomas Lion⁸, Charles Kurtsman⁹, Choy van Vu¹⁰, Hisao Komatsu¹¹, Choy Van Vu¹², Lidenberger¹³, Edan Nabi¹⁴ va Uzbek olimlaridan Izzat Sulton,

⁶ Edward Allworth. *Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present / A Cultural history.* - Californiya: Hoover Institution Press Stanford University, 1190, Edward Allworth. "Uzbek literary politics" London-Paris. 1964

⁷ Adib Xalid «Politics of muslim cultural reform. Jaddizm in Sentral Asia» California University press-1998: Adeeb Khalid and Ken Petersen. "Doctor Muhammad-Yar" translated from Uzbek. California Press, 1998.

"Nationalizing the Revolution: The Transformation of Jadidism, 1917-1920," in *A State of Nations: Empire and Nation-Making in the Age of Lenin and Stalin*, ed. Ronald Grigor Suny and Terry Martin. New York: Oxford University Press, forthcoming, 2001.

⁸ Shawn Tomas Lyons. *Abdurauf Fitrat's Modern Bukharan Tragedy.* University of Virginia College of Arts and Sciences 2006

⁹ Charles Kurtsman "What is reform"

¹⁰ Choy Van Vu. *Uzbek literary trends.* Tokyo 2002:

¹¹ Komatsu H. *Buhara and Istanbul.* -Tokyo: 1999-; Komatsu H, *Revolutionary Central Asia: Portrait of Abdurauf Fitrat/ Middle East in the muslim World 7.* -Tokyo University of Tokyo press, 1996

¹² Edward Said, *Figures, Configurations, Transfigurations*, in *New Historical Literary Study*, eds. Jeffrey Cox and Larry Reynolds (Princeton: Princeton University Press, 1993), p. 316. / Edward Said, *Culture and Imperialism* (New York: Vintage Books, 1994), p. 226.

Begali Qosimov¹⁵, Axmad Aliev¹⁶, Begali Qosimov, Hamidullo Boltabaev¹⁷, Sh. Rizaev¹⁸ va boshqa yetuk olimlar izlanishlari lingvistik metodologik asos sifatida foydalaniladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati Ilmiy tadqiqot natijalarini "Tarjima nazariyasi", "Leksikologiya", "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy tipologiyasi", "Tarjima nazariyasi", "Chet yel adabiyotshunosligi tanqidchiligi va tarixi", "Xorijiy adabiyotshunoslik" va "Adabiyot nazariyasi" darslarida qo'llash mumkin.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi sifatida transformatsion, qiyosiy, distributiv, ma'noni qismlarga bo'lish (komponentniy analiz), bevosita tashkil qiluvchilarga ajratish, statistik va tajriba metodlardan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Birinchi tomondan yurtimizdagi xorijiy tillarga qiziqishning o'sishi bo'lsa, ikkinchi tomondan O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan asar va tarixiy kitoblarni qiyoslash ingliz tili fani leksikologiyasi, adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasi tamoyillarini o'rganish va umumlashtirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida hozirgi zamon ingliz va amerikalik yozuvchilarning asarlari matnlari¹⁹, ingliz va amerika gazetalaridagi maqolalar matnlari, ish yuritish hujjatlari matnlarda berilgan ayrim misollar olinadi.

¹³ Herbert Lindenberger, *Historical Drama: The Relation of Literature and Reality* (Chicago: University of Chicago Press, 1975).

¹⁴ Eden Naby. "Transitional Central Asian Literature: Tajik and Uzbek prose fiction from 1909 to 1932". Colombia University. 1975

¹⁵ Begali Qosimov, Inson Fojialari, Ozbekiston Adabiyoti va Sanati 6 April 1990, p. 6./ Begali Qosimov, Maslakdoshlar (Toshkent: Sharq, 1994); Mamajan Rahmonov, См. бегали Касымов, Maslakdoshlar (Ташкент: Шарк, 1994);

¹⁶ Ahmad Aliev, *Adabiy Meros va Zamonaviylik* (Toshkent: Ghafur Ghulom Nomidagi Adabiyoti va Sanat Nashriyoti, 1983), p. 77./ Ahmad Aliev, *Adabiy Meros va Zamonaviylik* (Toshkent: Ghafur Ghulom Nomidagi Adabiyoti va Sanat Nashriyoti, 1983), p. 77

¹⁷ Hamidulla Boltaboyev. "Sayha" qismatidan lavhalar yoki shoir Fitrat haqida. "Sharq yulduzi", 1991, 6-son/ Boltaboev H. 20 asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. aftoreferati. T.: 1996

¹⁸ Sh. Rizaev. *Jadid dramasi*. Toshkent – 1997

¹⁹ Edward Said, *Figures, Configurations, Transfigurations*, in *New Historical Literary Study*, eds. Jeffrey Cox and Larry Reynolds (Princeton: Princeton University Press, 1993), p. (Princeton: Princeton University Press, 1993), p. 316. 316.

Dissertatsiyaning tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish qismi, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Birinchi bobda Abdurauf Fitrat kechirgan hayoti va yozgan asarlari O'zbek olimlari tomonidan qilingan tahlili keltiriladi.

Ikkinchi bobda Xorijlik olimlarning Abdurauf Fitrat hayoti va ijodiga bo'lgan qarashlarini aniqlanadi va o'rganiladi;

Xorijda Abdurauf Fitrat nashr etgan ijod namunalari xaqida fikrlash²⁰;

Uchinchi bobda Abdurauf Fitratning "Xindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning bir nechta masalalar xamda usuli jadida hususida qilgan munozarasi" (Debate between a teacher from Bukhara and a European) dramasi tarjimasidan parchalar keltiriladi;

Abdurauf Fitratning "Xindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning bir nechta masalalar xamda usuli jadida hususida qilgan munozarasi" (Debate between a teacher from Bukhara and a European)dramasi tarjimasi xususiyatlarini tarjima nazariyasi tamoyillari asosida tahlil qilib o'rganiladi.

Xulosada tadqiqotning natijalari qisqacha bayon etiladi.

²⁰ Edward Allworth. Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present / A Cultural history.- Californiya: Hoover Institution Press Stanford University, 1190 . / An Analysis of the Western Scholarly Discourse on Turkic Identity in Central Asia, The Turkish Yearbook of International Relations, No: 32,2002, pp. 127 166.

I BOB O'ZBEK JADID ADABIYOTINI XORIJ ADABIYOTSHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

I.1 Jadid adabiyotini xorijda o'rganilishi yuzasidan tahlillar

So'nggi yillarda O'zbekistonning dunyo davlatlari o'rtasidagi mavqeyi oshib, jahon hamjamiyatidagi o'rnini sezilarli darajada mustahkamlanib bormoqda. Yurtimizda adabiy aloqalar sohasida ham ijobiy yutuqlarga erishilmoqda. Xorijlik adabiyotshunoslari ham bizning bu sohada amalgam oshirayotgan ishlarimizga katta baho bermoqdalar.

Gap adabiyotshunoslik borasida borganda biz jadid namoyandalarining faoliyati, yaratgan asarlarini xorijda organilishi va tahliliga to'htalmasdan ilojimiz yo'q. Chunki, jadidchilarning yurtimiz mustaqiligi va gullab yashnashinini ko'rish maqsadida amalga oshirgan jonbozliklari taxsinga loyiq. Bu borada xorij davlatlaridan AQSH, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya va Turkiya davlatlarining hufuzli universitetlarida Markaziy Osiyo adabiyotini o'rganish uchun maxsus yonalishda grantlar va bo'limlar mavjud. Bunda olim va tadqiqotchilar turli yo'nalishlarda izlanishlar olib bormoqdalar. Ular qatorida Edvard Olvort²¹, Aleksandr Benningsen, Ken Petersen, Adib Halid, Charlez Kurtsman, Ingeborg Baldaufning alohida o'rnini bor.

Amerikaning Xarvard universitetining "The Central Eurasian Studies Review (CESR) (oz)" jurnalida Adib Halid, "Menga ko'pincha g'arb olimlari va ba'zan hatto fandan yiroq bo'lgan shaxslar ham "Markaziy Osiyo xalqlari Jadidchilarni Islomning yangi zamonga moslashtirishga uringanlari uchun eslashadimi deb so'rashadi. Taraqqiyot va yangicha hayot fikrlari bilan to'lgan, davr talablariga befarq bo'lmagan bu ziyoli harakatining a'zolari Islomni zamonaviy ilmlar bilan uygunlashgan holda talqin qilish orqali yangi davrga moslashtirib, "Liberal Islom" oqimi, ya'ni Islomni radikal yoki millatchilik ruhida talqin qilishdan saqlab qolishni o'ziga maqsad qilib olgan diniy guruh deb atash

²¹ Edward Allworth. Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present / A Cultural history.- Californiya: Hoover Institution Press Stanford University, 1190. / An Analysis of the Western Scholarly Discourse on Turkic Identity in Central Asia, The Turkish Yearbook of International Relations, No: 32,2002, pp. 127-166.

mumkin.”²² deb ta’kidlaydi. Adib fikrlaridan ko’rinadiki u jadidchilarning turli jabhalarda olib borgan ishlari qatoriga nomoyandalарimizni Islom dinini ham chetda qoldirmaganiga izoh beradi. Fikrini davim ettirib u “Bu jadidchilik harakatining Liberal Islomning ibtidosi sifatida qabul qilishga bo’lgan urinishlarni Markaziy Osiyoliklarning o’zlari ham uncha qo’llab-quvvatlamaydilar. Jadidchilik haqida O’zbekistonda (Sobiq Sovet Ittifoqi davrida) juda ko’p qarama-qarshi fikrlar mavjud edi. Bugun O’zbek tarixshunosligi nuqtai nazaridan olib qaraganda esa, jadidlar milliy qahramonlar, ozodlik kurashchilari, O’zbek halqining buyuk vakillari hisoblanadilar. Bu xarakat a’zolarining Islomga hech qanday aloqasi bo’lmaganligi haqidagi fikrlarni paydo bo’lish sababini esa jadidlar va jadidchilik haqidagi rasmiy manbalarni o’qigandan keyin tushunib yetish mumkin.” – deydi u.

Darhaqiqat, tan olish kerakki, sobiq Sovet davrida odatda jadidchilar va ularning adabiy merosi deyarli o’rganilmas edi. Organilgan taqdirda ham sovet hukumati mafkurasi, sharafi va obro’siga putur etkazmaydigan sohalargina qisman o’rganilar edi. Bu esa O’zbek adabiyotining xorijlik ihlosmandini xaqiqiy voqelikdan chetda qolishiga sabab bo’lgan. Bu hususida ham Adib Halid fikrini qo’yidagicha bayon etadi: “Quyida men keltiradigan fikrlarga G’arbdagi qarashlar va Sovet tuzumining tanazzuli paytidagi vaziyat o’rtasidagi nomutanosibliklar sabab bo’ldi. Bundan tashqari, bu haqda fikr yuritganda, albatta so’nggi yuz yil va shunga yaqin davr oralig’idagi Markaziy Yevrosiyoni bir yaxlit hudud o’laroq yoritib bergan ba’zi umumiy siyosiy-madaniy qarashlar o’rtaga chiqadi”.

Jadidchilik ko’plab sinovlarni boshidan kechirdi. Sovuq urush davrida bu murakkab mavzu ustida ish olib bormoqchi bo’lgan kishi biridan tamoman farq qiluvchi ikki tarixiy yondoshuvga guvoh bo’lardi. G’arbda jadidchilik Rossiya imperiyasi musulmonlarini milliy uyg’onish va yangilanish yo’lidagi yagona harakat sifatida yoritilardi.

Muhojirlar (asosan Tatarlar) tomonidan turkiy tilda yozilgan jadidchilik haqidagi ma’lumotlarning asosi yuqoridagi fikrni o’zida mujassam etardi. Bu

²² What Jadidism Was, and What It Wasn’t: The Historiographical Adventures of a Term, Adeeb Khalid. “The Central Eurasian Studies Review (CESR)” 2006. page 3 volume 5

nuqtai nazar hech qanday o'zgarishsiz Frantsiya, Buyuk Britaniya va AQShlik sharqshunoslar tomonidan to'g'ri deb qabul qilingan edi.

Sovet mafkurasida jadidchilik butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Mavjud manbalarga ko'ra esa jadidchilik millatchi-burjua g'oyasi hisoblanib, jadidlar butun Rossiya bo'ylab faoliyat olib borayotgan, shakllanish davrida bo'lgan burjuaziyaning tipik vakillari edilar. Biroq, jadidlar jamiyatning ilg'or ziyoli qismini jalb etgan holda o'z homiylarini siyosiy hamlalardan saqlab qolish maqsadida millatchilik va shovinizm usullaridan foydalanishni maqsad qilib qo'ygandilar. Jadidchilarning nomlari ma'rifatparvar va ziyoli sifatida emas balki millatchi nomiga yaqin kelardi. Ayrim olimlarning jadidchi va ma'rifatparvarlarni oqlashga bo'lgan urinishlariga qaramay, umumiy qarashlar qayta qurish davriga qadar o'zgarmay kelgan.

Bilamizki, g'arbda jadidchilik Rus imperiyasidagi musulmonlarning yangi davr tarixini yoritishdagi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan. Aksincha, sovet tarixi kitoblarida asosan bir necha satrdan iborat holda eslab o'tilagan xolos. Bu mavzuda ilmiy izlanish esa taqiqlangan edi.

G'arbda jadidchilikka oid manbalar deyarli yo'q edi, Parijda Aleksandr Bennigsen va Nyu-Yorkda Edvar Alvortning tomonidan mashaqqatlarla to'plangan manbalar yetarli emas edi. Ayrim mutaxassislar Turkiyadagi xususiy kutubxonalar yoki Xelsinkidagi Slavyan kutubxonasida yalinib olgan olgan ma'lumotlarga tayanib, ancha ahamiyatga molik izlanishlarni olib bordilar, biroq ularning imkoniyatlari doimo chegaralangan edi. Butun manbalar Sovet Ittifoqida edi, biroq u yerda bu manbalardan foydalanishga ruxsat yo'q edi.

Quyida men keltiradigan fikrlarga G'arb olamidagi qarashlar va Sovet davri so'ngrasi vaziyat o'rtasidagi nomutanosibliklar sabab bo'ldi. Bundan tashqari, bu haqda fikr yuritganda, albattaki so'nggi yuz yil va shunga yaqin davr oralig'idagi Markaziy yevrosiyoni bir yaxlit hudud o'laroq yoritib bergan ba'zi umumiy siyosiy-madaniy qarashlar o'rta chiqadi.

Jadidchilik ko'plab sinovlarga duchor bo'ldi. Sovuq urush davrida bu murakkab mavzu ustida ish olib bormoqchi bo'lgan kishi (men ham shular

jumlasidan edim) ikki bir biridan tamoman farq qiluvchi tarixiy yondoshuvga guvoh bo'lardi. G'arbda jadidchilik Rossiya imperiyasi musulmonlarini milliy uyg'onish va yangilanish yo'lidagi yagona harakat sifatida yoritilardi. Bu fikrning asosida ikki narsa yotardi: 1) milliy liberal siyosiy harakatning ta'lim va madaniyat sohasini islox qilish va bu orqali keyingi to'la rivojlanish uchun asos bo'luvchi diniy islohoti bilan bir-biriga bog'langan turli davrlardagi faoliyati solnomasi va 2) jadidchilik harakati va u oid bo'lgan jamiyatni asosiy birlashtiruvchi g'oya (millat). Jadidchilik Qrim va Volga tatarlari tarafidan ular diyorining har tarafida qo'llab-quvvatlangan islohotlarning debochasi, uyg'onishga chaqiruvchi qo'ng'iroq edi. (boshqa tarafdin, Ismoil Gasprinskiyning Bombeyda yangi usul maktabi ochishi kutilayotgan edi) Muhojirlar (asosan Tatarlar) tomonidan turkiy tilda yozilgan jadidchilik haqidagi ma'lumotlarning asosi yuqoridagi fikrni o'zida mujassam etardi. Bu nuqtai nazar hech qanday o'zgarishsiz shaklda Frantsiya, Britaniya va AQShlik sharqshunoslar vositasida g'arb tomonidan to'g'ri deb qabul qilingan qarashlarga aylantirilgan edi.

Sovetlar mafkurasida jadidchilik butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. U yerda jadidchilik unchalik ko'p yoritilmas edi. mavjud manbalarga ko'ra esa jadidchilik millatchi-burjua g'oyasi hisoblanib, jadidlar Butun Rossiya bo'ylab faoliyat olib borayotgan, shakllanish jarayonida bo'lgan burjuaziyaning vakillari edilar. Biroq jadidlar jamiyatning ilg'or ziyoli qismini jalb etgan holda o'z homiylarini siyosiy hamlalardan saqlab qolish maqsadida millatchilik va shovinizm usullaridan foydalanishni maqsad qilib qo'ygandilar. Jadidlarni ular kabi yangicha fikrlaydigan ziyolilar bo'lgan, biroq millatchi qarashlari kuzatilmagan, va ma'lum darajada Rossiya hukmronligining "ijobiy ahamiyatini" va "taraqqiyot vositasi ekanligini" qabul qilgan ma'rifatparvarlardan (prosvetiteli) ajratib talqin etilardi. Ayrim mualliflarning jadidlar va ma'rifatparvarlarni ajratishga qarshi bo'lgan fikrlarni berishga urinishlariga qaramay, umumiy qarashlar qayta qurish davriga qadar o'zgarmay keldi.

G'arbda jadidchilik Rus imperiyasidagi musulmonlarning yangi davr tarixini yoritishdagi asosiy mavzu sifatida talqin etilgan bo'lsa, sovet tarixi kitoblarida

asosan bir necha satrdan iborat holda eslab o'tilardi xolos. Bu mavzuda ilmiy izlanish taqiqlangan edi. G'arbda jadidchilikka oid manbalar deyarli yo'q edi, Parijda Aleksandr Bennigsen va Nyu-Yorkda Edvar Alvortning tomonidan mashhaqqatlarla to'plangan manbalar yetarli emas edi. Ayrim mutaxassislar Turkiyadagi xususiy kutubxonalar yoki Xel sinkidagi Slavyan kutubxonasida yalinib olgan olgan ma'lumotlarga tayanib, ancha ahamiyatga molik izlanishlarni olib bordilar, biroq ularning imkoniyatlari doimo chegaralangan edi. butun manbalar Sovet Ittifoqida edi, biroq u yerda bu manbalardan foydalanishga ruxsat yo'q edi. Shuningdek, bu manbalar bilan ishlash uchun yetarli lingvistik va paleografik bilim va ko'nikmalar yetarli emas edi.

Sovet talqini G'arb qarashlari yoki muhojirlarlikdagi insonlarning hikoyalariga nisbatan ancha ishonchsizroq edi. Jadidlar va ma'rifatparvarlar o'rtasidagi farq imkon boricha bo'rttirib ko'rsatilgan edi. (Ularni bu ikki guruhga ayirishda 30yillarda surgun qilib qilinmaganligi asosiy belgi sifatida olingan edi). Keng yoyilgan marksizm g'oyalari ko'ra, jadidchilikni sinfiylikka aloqador ko'rsatish uning tarixdagi o'rnini ko'rsatib bera olmasdi. G'arbg'a oid (yoki boshqacha aytganda, Sovetlarga oid bo'lmagan) fikrlar esa mustahkamroq edi, chunki ular hozir ham o'z ishontirish kuchini yo'qotmagan milliy uyg'onish va liberalizatsiya kabi qarashlar bilan ifoda etilardi. Qayta qurishning qizg'in pallalarida ba'zilar, Sovet mafkurasining intihosi bilan tarixshunoslik yangi bir bosqichga ko'tarilib, butun dunyo mutaxassislari tarix voqealarini yagona nuqtadan baholash imkoniga ega bo'ladilar degan umidlari, afsuski puchga chiqdi. Jadidchilik harakati bo'lib o'tgan o'lkalarning har birida u yangicha talqinga ega bo'ldi. O'zbekistonda u "Stalin repressiyasi" va "Sovet mustabid tuzumi" tarafidan yo'q qilingan milliy liberalizatsiya harakati sifatida qabul qilindi. Tojikistonda u pan-turkizmning sinonimi holiga keldi, Tataristonda Tatar millatchilik harakatining bir ko'rinishi sifatida, Boshqirdistonda Tatar gegemonliliga qarshi kurash namunasi o'laroq o'rta qildi.

Shu bilan birga, Sovet Ittifoqining parchalanishi jadidchilikka oid izlanishlarni ba'zi jihatlardan katta o'zgarishlarga olib keldi. Biz bugun umumiy bir

nuqtaga kela olmayotgan bo'lishimiz mumkin, biroq biz endi bir biridan tamoman farq qiluvchi siyosiy, mafkuraviy, metodik ziddiyatlar orqali fikr almashishimiz mumkin. Yigirma yil(!) avval bular umuman bir biriga umuman mos kelmaydiganday ko'rinardi. Bu fikr almashinish imkoniyati albattaki CESSning paydo bo'lishining asosiy sababidir. Biroq Mixail Gorbachev amalga oshirgan tarixiy o'zgarishlar bo'lmaganda edi, bu imkoniyat amalga oshmaydigan orzu kabi qolib ketardi. Va bugun bu mavzu ustida ish olib borish uchun materiallarga, - aytib o'tish kerakki ularning hajmi juda katta, - yigirma yil avval tasavvur ham qilib bo'lmaydigan darajada yo'l ochilgan. Biz hamma narsada bir xil fikrga kelmasligimiz mumkin, (xamma narsada bir nuqtaga kelish bu butun maqola bekorga yoztigan degan ma'noni chiqaradi) lekin, mavzu ustida munozara yuritishimiz mumkin. Va bu munozaralarni yangi fikr va mulohazalar bilan davom ettirishimiz mumkin.

Manbalar hech qachon tarixiy haqiqatni aytib bermaydi, biroq ular bizga izlanayotgan mavzuimizni yaqinroq o'rganishga imkon beradi. Ular yana jadidchilik va jadidlarni tahliliy jihatdan foydaliroq ta'riflashga asos bo'ladi. Jadid so'zi ko'pincha noto'g'ri holda Rossiya imperiyasidagi jamoat ishlarida aktiv rol o'ynagan va dunyoviy bilimga ega bo'lgan har qanday musulmon yoki barcha musulmonlarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu so'zning mazmunan to'la bo'lgan va jadidlarni ular o'zlarini ta'riflashlari mumkin bo'lgan shaklda ifoda etgan ta'rifi jadidlarni musulmon madaniy hayotini isloh qilish haqidagi munozaralarda qatnashganlar, maktablar tashkil etganlar, gazetalar chop etganlar, teatrlarda spektakllar namoyish etganlar, va boshqa musulmonlar bilan olib borilayotgan keng isloxotlarning zaruriyati va mumkin-mumkin emasligi haqida bahslar yuritgan shaxslar doirasida chegaralagan bo'lardi. Ular boshqa dunyoqarashlarning ko'plab nuqtalarini xayrihohlik bilan qabul qilishardi, biroq, umuman olganda ular Islomiy dunyoqarashning vaeillari edilar. Aniq ta'rifga kelmaslik jadidchilikni Rus imperiyasidagi islomiy boshqa zamonaviy oqimlar yoki mutafakkirlar bilan birlashtirib yuborishga sabab bo'lishi mumkin. Siyosiy jabhada juda faol bo'lgan Tatar va Boshqird mutafakkirlari va universitet ta'limiga ega bo'lgan ziyolilari

yangi usul maktablari ochish timsolida o'tkazilgan madaniy islohotlarda kamdan kam ishtirok etishardi. Ularni hech qanday shaklda jadid deyishimiz mumkin emas.

Yuqoridagi shaklda ta'riflangan jadidchilik Volga-Ural mintaqasi, Qrim, Sibir, va Turkistonning musulmon shahar qatlamiga oid bo'lgan bir fenomendir. Qozoq va Turkmanlar orasida jadidlarning bo'lib bo'lmagani bahsli mavzudur. Misol uchun, Alash O'rda tetapoya bo'layotgon qozoq intelligentsiyasining (bu iboraning ruscha asli bilan aytganda) harakati edi va uning jadidchilik bilan hech qanday aloqasi yo'q edi.

Jadidchilik Islomiy islohot harakati ham bo'lgan. Jadidchilikning diniy mohiyati doimo ozaytirib ko'rsatib kelinadi. Buni nafaqat sovuq urush davri sovet tarixida jadidchilikka yondoshuvda, balki Sovetlar so'ngrasi qarashlarda, xususan O'zbekistondagi jadidchilik talqinida ko'rish mumkin. Sovuq Urush davridagi Sovetlarga oid bo'lmagan qarashlarda diniy islohotlarni dunyoviy zamonaviy siyosiy harakat bo'lgan Jadidchilikning paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega bo'lganligi ilgari suriladi. Shu sabadan Abdunnosir Kursaviy, Shahobiddin Marjoniy, Ahmad Mahdum Donish kabi olimlar to'laqonli milliy harakatning g'oyachilari sifatida ko'makka chaqirilganlar. Ularning ishlari katta maqsadlar yo'lida bir vosita bo'lgandi xolos. Ya'ni ular keyingi taraqqiyot uchun poydevor yaratishgan. Bu teleologik dalil qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Rossiya imperiyasi musulmonlari orasida bir vaqtning o'zida kelib chiqishi va g'oyasi bir biridan farqli bo'lgan Islohotchilikning turli oqimlari mavjud bo'lgan. Ular ba'zan alohida holda, ba'zan bir biriga qisman yoki tamoman bog'liq holda bo'lishgan va bir biridan o'ta farqli natijalarga erishishgan.

Islohotlarning ilk oqimlari deyarli Islom an'analariga bog'liq bo'lgan va e'tiqod va ibodat masalalarini o'z ichiga olgan. Bu diniy bahslarning 19 asr oxirida o'rtaga chiqqan zamonaviy islohchi xarakatlar bilan umumiy bog'liqligi yo'qdir. Yuqoridagi oqimlar mug'ullar davridan beri O'rta Osiyoda davom etib kelayotgan Qur'onning tafsil qilish an'analariga hamda Islom dinini targ'ib etuvchi oqimlar ta'sirida Qur'on va hadislarni bo'ysunish uchun yagona manba sifatida qarashga qo'shilmaslik natijasida vujudga kelgan. Islom asl yozma manbalarini ulamolar

tomonidan qayta tekshirish orqali yangidan tafsil qilish 19 asr davomida shakllanib, revolyutsiyaga qadar davom etgan diniy islohot g'oyasining markaziy nuqtasi bo'lgan.

Jadidchilik bu diniy yangilanish fikrlarini ko'pini o'zlashtirgan holda ularni taraqqiyot va u bilan chambarchas bog'liq bo'lgan madaniyat g'oyalari bilan birlashtirganlar. Jadidlarga ko'ra, bular bilim egallab, uning foydasidan bahramand bo'lish uchun o'zini yo'naltirgan barcha uchun erishish mumkin bo'lgan umumbashariy fenomenlar edi. Bu bilan, jadidlar musulmon dunyosida keng tarqalgan yangicha musulmonlik fenomenining bir qismi ekanligi ko'rinadi. Ular islohotchilar sifatida o'zligini anglab yetgan musulmonlar nuqtai nazaridan islom va musulmon olamini ustunligini e'tirof etishgan. Ular keng ko'lamda an'analarni isloh qilishga chaqirganlar, "haqiqiy islom"ni zamonaviy talqinini o'zlariga o'lchov qilib olganlar.

Jadidchilik avvalgi diniy isloh yo'lidagi urinishlarning siyosiy harakat shaklidagi mantiqiy yakuni emas edi, biroq, shu bilan birga, ulardan ajratib bo'lmaydigan ham emas edi. U islom an'analaridan butunlay tashqarida bo'lgan dunyoviy harakat deb atash ham juda qiyin. Jadidlar marosimlarsiz dunyo haqidagi qarashlarni ilgari surganlar. Biroq ularni oddiygina dunyoviy ratsionalizmning timsoli sifatida qarash noto'g'ri bo'ladi. ular mahalliy urf-odat va an'analarning ko'piga qarshi bo'lishgan, lekin ularning intilishi islomni rad etish emas, balki ko'p hollarda uni yangicha talqin qilish bo'lgan. Jadidlarning dunyoviy millatchilik harakati sifatida bu qarashlari alohida o'rin tutadi. Bu fikrlar Sovuq urush davridagi millatchi muhojirlar va bugangi kundagi Sovet davri so'ngirasi ziyolilari hamda rejimlar tomonidan ma'qullangan. Ajablanarlisi shuki, jadidlarning bu nuqtai nazariga Markaziy Osiyodagi ko'plab Islom olimlari tomonidan bildirilgan farqli darajalarda munosabatlar ularni yanada mustahkamlagan. Bu olimlar kistik bir yangilanish traftori bo'lgan guruhga berilayotgan bu cheksiz e'tibordan norozi holda, o'z an'analaridan voz kechganliklari uchun ularni kamsitishgan. Lekin bu to'raligicha ichki turli-tumanlikni va islom an'alarining o'zgara olish imkoniyatini yetarlicha ko'ra olmaslikdir. Jadidchilik bu islomiy g'oya bo'lib, u

diniy va madaniy anʼanalarning asrlar davomida rivojlana olish yoʻllarining namunasi edi.

Shuni eslab oʻtish joizki, jadidlar jamiyatdagi ularning mahalliy urf-odatlarini tanqid qilishlarini shakkoklik va ularning jamiyatni boshqarishga boʻlgan daʼvogarliklarini bezbetlik deb qaragan koʻplab guruhlar tarafidan qattiq qarshilikka uchrashgan. Asosiy muhokama masalalari quyidagilar edi: “Islom” nima oʻzi? Oʻsha paytda oʻsha joyda musulmon boʻlish nimani anglatar edi? bu savollarga javob berish va jamiyatni orqasidan ergashtirishga kim haqliydi? Barcha tarixchilar koʻp hollarda, jadidlarning oʻzlarini jamiyatning mantiqiy yoʻlboshlovchilari sifatidagi qarashlarini maʼqullaydilar va ularga qarshi boʻlganlarni anʼanalarni davom ettiruvchilar va tushunchasiz, yangilikka qarshi boʻlganlar, yaʼni qadimchilar deb qabul qiladilar. Bunday qarashlar bizni musulmon jamiyatlari madaniy va siyosiy munosabatlarini toʻgʻri tushunishimizga toʻsqinlik qiladi. Jadidlarga qarshi boʻlganlar farqli yoʻnalishlarda, farqli sabablar tufayli oʻrtaga chiqadi, va bu 1917 yil saylovlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Unda jadidlar jamiyatda mavjud boʻlgan boshqa guruhlariga osongina yutqazishadi.

1917 tajribasi koʻplab jadidlarni yangicha fikrlashga boshlatadi. Jamiyatdagi oʻta sekin oʻzgarishlar va insonlarni islohotlarga chorlashdan charchagan jadidlar inqilobiy oʻzgarishlar gʻoyasi bilan qiziqib qoladilar va ularning koʻpi 1918 yildan boshlab bol sheviklarga qoʻshiladilar. Keyingi bir necha yillar davomida, ular islomni mustamlakachilikka qarshilik va birlik sifatida talqin etuvchi fikrni rivojlantiradilar. Bu ham Islomiy gʻoya edi, va agar biz buni islom tarixidan chiqarib tashlaydigan boʻlsak, bu biz islomni yaxshi tushunmaymiz deganidir.

Agar jadidchilik modernizmning islomiy talqini boʻladigan boʻlsa, u bugun liberal islom modeli sifatida qayta jonlantirilishi mumkinmi? Menimcha yoʻq, lekin jadidchilik liberal boʻlmagani uchun emas, balki u oʻzi oid boʻlgan zamon va makon doirasida sakson yil keyin qayta takrorlash mumkin boʻlmagan darajada katta taʼsir ostida qolgan.

I.2. Horijlik adabiyotshunos olimlarning jadid adabiyoti nomoyandalari adabiy merosini organishiga undagan omillar

Inglizchalashtirilgan tarjimalarga nazar tashlasak, ular bir qator tarjimonlar tomonidan tarjima qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Misol tariqasida Vashington Universitetida faoliyat ko'rsatayotgan tarjimon Karolin Veyni olishimiz mumkin. U Xoji Muinning "Mazluma xotin" (the oppressed wife) va Oybekning "Bolalik" (The childhood) asarlarini qisqartirilgan xolda inglizchalashtirgan. Tarjimon asarlar tarjimasida o'zbek realiyalarini o'g'irishda bir oz kamchiliklarga yo'l qo'ygan, ammo bu nuqsonlar asar mazmuniga va kitobxon ongiga tug'ri etib borishiga salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Abdurauf Fitratning "Xindistonda bir Farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida munozarasi" (Debate between a teacher from Bukhara and a European²³) asarini Amerikalik olim Villiam Xannavey tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. U asarni 1911-1912 yillarda Istambulda nashr etilgan "Matba-i islamiya-i Xikmat" jaridasining 30-53betlarida fors tilida e'lon qilingan "Munozarai Mudarrisi Bukharai makatib-i Jadida" nusxasidan tarjima qilgan.

Amerikaning Karolina universitetida faoliyat ko'rsatayotgan professor Adib Xolid xam nomoyondalarimizning bir qator asrlarini tarjima qilgib inglizcha kitobxonlar e'tiboriga xavola etgan. U Munavvar Qorining Turkiston gazetasining 1906 yil 26 sentyabrdagi sonida nashr etilgan "Islax ne demakdur" (What is reform) asarini, Abdulxamid Sulaymon Cho'lponning "Sadoi Turkiston"ning 1914 yil 4 iyul', 25 iyul', 26 oktyabr', 5 noyabrdagi sonlarida nashr ettirilgan, xamda Sirojjiddin Axmad va Ulug'bek Dolimovlar tomonidan "SHarq yulduzi" jurnalining 1992 yil 1-soni 132-138 betlarida qayta chop etilgan "Doktor Muxammadyor" (Doctor Muhammad-yar) asarlarini tarjima qilgan. Bulardan tashqari A. Xalid Behbudiyning 1913 yilda yozgan "Padarkush" (The Patricide) asarini xam qisqartirilgan xolda tarjima qilgan. A. Xaliddan oldinroq bu asarni yana bir olim edvard Olvort to'liq tarjima qilganligidan xabarimiz bor. Uning tarjimasini 1986 yilda Ural oltoy yilnomasining 84-93 betlarida bosilib chiqqan.

²³ Charles Kursman. "What is reform" translated from Uzbek

Edvord Olvort bu asarni (Murder as metaphor in the first Central Asian drama) O`rta Osiyodagi birinchi drama deb xisoblaydi.

Horijlik mutahassislarning fikricha jadidchilik Rossiya imperiyasida musulmon tabaqalariga oid bo`lgan va turli o`zgarishlarga yangi zarurat va imkoniyat paydo bo`lganda islohot kerakligiga ishora qila oladigan yangi guruhlarining paydo bo`lishi natijasida o`rtaga chiqdi. Jadidlar yangi sharoitdagi qiyinchiliklarni yenga olishi uchun jamiyatni qaytadan tartibga solish orqali taraqqiyot va tsivilizatsiyaga erishish mumkinligini ilgari surishgan. Jadidlar zamonaviy yevropadan o`zlashtirilgan yangicha tashkilotchilik va fikr almashish usullarini qo`llagan holda savodxonlikni keng yoyish, jamiyat a`zolarini yangi shakldagi ijtimoiy munosabatlarga o`rgatish, birdamlikning yangi turlarini ularning ongiga singdirish kabi maqsadlarga intilganlar. Bundan tashqari, jadidchilik Rossiya imperiyasi musulmonlarining siyosiy intilishlarini shakllantirgan Imperiyaning eng kuchaygan davrida o`rtaga chiqdi. 1917 yilgacha (va inqilob davrida ham) mustaqillik masalasi jadidlar uchun uncha dolzarb emas edi. Ular Rossiyani liberal, demokratik tolerant davlat sifatida qayta shakllanishi yo`lida ish olib borishardi. Bu jarayon ichida, musulmon jamiyatlari isloh etilishi lozim edi, islomning o`zi yangicha, kerak bo`lsa eski an`analaridan voz kechilgan holda qayta talqin qilinishi kerak edi. Urf-odat va an`analar ustivorligi, jamiyat ust tabaqasi qayta ko`zdan kechirilishi kerak edi. Va shunday qilindi ham.

Bugungi kunga solishtirsak ahvol qanday? Jadidlar tomonidan emas, balki Sovetlar tomonidan bo`lsa ham, jadidlar hohlagan narsalarning ko`pi amalga oshirildi, To`la savodxonlikka, ijtimoiy munosabatning yangi shakliga va milliy birdamlikka erishildi. (bu holat musulmon olamining qolgan qismida ham amalga oshdi. Bu maqsadlarga 1920-yillarda boshlangan davlatlarni modernizatsiya qilish harakati orqali erishildi) Halqaro holat ham tamoman boshqacha. Bugungi kunda davlat bo`lish uchun normativ shakli bu millat-davlat shaklidir. Milliy mustaqillik g`oyasiga erishildi.

Islom bilan bog`liq bugungi holat ham 20 asr boshlariga solishtirganda juda farqlidir. Jadidlar uchun muammo urf-odat va an`analar edi. Islom ularga va ular

vositasida o'zini ushlab turgan boshqaruv sistemalariga qarshi bo'lgan fikrlar orqali yangilanishga majbur bo'ldi, Sovetlar davri ko'plab Islom aqidalariga o'ta radikal va uzoq davom etgan qarshi fikrlarga guvoh bo'ldi. Jadidlarning islom aqidalarini tanqid qiluvchi qarashlari hozirgi ehtiyojlarga mos keladi. Sovet davrida, Musulmonlarning katta qismi uchun, islom an'analar bilan ifodalanish holiga keldi. Endi asosiy masala uni yo'q qilib tashlash emas, balki qanday saqlab qolish bo'lib qoldi va bu bundan buyon shunday davom etadi. Ayni paytda "siyosiy islom," "radikalizm," "ekstremizm" qo'rquvi butun Sobiq ittifoq hududida hukumat siyosati va jamiyat fikrini belgilamoqda va bu jadidchilikka ba'zi jixatlardan qayta baholashga yo'l ochmoqda. Keling buni O'zbekiston misolida qisqacha tahlil qilib ko'raylik.

Jadidchilik ilk bor oshkoralik davrida ziyolilar tarafidan esga olingandi, biroq u davrda ular asosan zamonaviy (Sovet davri) o'zbek adabiyotining asoschilari sifatida eslangandi. Faqatgina 90-yillarning o'rtalariga kelib ular jiddiy tarixiy yondoshuv bilan muhokama mavzusiga aylandilar. Amaldagi xukumat va ziyoli qatlamning katta qismi "siyosiy islom,"dan xavotirdalar. Jadidlarning islomiy kelib chiqishi ularni noqulay ahvolga solib qo'yadi. Shunga qaramay ular O'zbek davlatchiligi yo'lida jon fido qilgan shahidlar, halqning qahramon vakillari kabi usullarda ulug'lanadi. Biroq ularning Islom g'oyalariga qo'shgan hissalar deyarli tilga olinmaydi. Hattoki, yangi O'zbek Islom Entsiklopediyasida (Xusniddinov 2004) jadidchilikka oid hech bir ma'lumot yo'q. Jadidlarning urf-odat va an'analarga qarshi munosabatlari hozirgi kungi rasmiy islom qarashlariga teskaridir. O'zbekiston musulmonlar idorasi Islomning Hanafiylik oqimi an'analari doirasida deb belgilab qo'ydi. va uni turli oqimlarning qarshiliklaridan himoya qiladi Idora ba'zi nuqtalarda jadidlar bilan bilan bir xil qarashga ega. Masalan u qarshi bo'lgan narsalar orasida to'y marosimlarga katta xarajatlar sarflash bor. Biroq shunga qaramay, musulmonlar idorasi jadidlar haqida fikr bildirmaydi.

O'zbekistndagi radikal musulmonlarni olib qaraydigan bo'lsak ularning islohot nuqtai nazarlari boshqa davr, boshqa joy, boshqa shartlarda bo'lgan

jadidlarnikidan o'ta farqlidir. 20-asr boshidagi taraqqiyot va tsivilizatsiya haqidagi fikrlar ularda qiziqish uyg'otmaydi. Bugungi kunda radikallar uchun maqsad Jadidlar hohlagandek islomni zamonaviylashtirish emas, balki zamonaviy dunyoni islomlashtirishdir. Shuning uchun, marosimlarni bid'atlardan tozalash, diniy bilimlarni asl nusxadagilarga asoslanishi, kabilarda radikallarda jadidlarga ba'zi o'xshashliklar bo'lsada, siyosiy, ijtimoiy va madaniy qarashlar juda farqlidir. Shuning uchun bugungi kun radikallarining jadidlar bilan umumiylik tomoni deyarli yo'q.

Professor Adib Xalidga kelsak u jaded adabiyotini mukammal o'rgangan olimlardan biridir. U ko'pgina grant va unvonlar sohibiga aylanishiga uning sobiq Sovet ittifoqi davrida hali omma e'tiboriga xavola etilmagan diniy vaziyat va musulmonlarning ijtimoiy xolatini yoritib bergan kitobi bo'ldi. Uning Amerika Qo'shma shtatlaridagi aniqrog'i Karleton kollejidagi ilmiy faoliyati va dunyo bo'ylab qilgan safarlari uni bu kiobini yozilishiga turtki buldi.

Dastlab u "The Many Ways of Being Muslim in the Modern World: Episodes From the Soviet History of Islam," ya'ni "Xozirgi zamonda musulmon bo'lishning ko'p yo'llari: Islom dinining sovetlar daridagi ko'rinishidan lavxalar" mavzularida ma'ruzalar tashkil etdi. Uning maruzalarida Markaziy Osiyo haqida turli xildagi oldi qochdi gaplarga asoslanmaganligi tezda omma nazariga tushdi. F. Xalidning maruzalarini boshqa joylarda tashkil etishiga Oq uy vakillari ham xech qanday noroziliklar bildirishmadi. Chunki tashkil etilgan ma'ruzalarda u yoki budavlat nomini bulg'ovchi safsatalar yo'q edi.

Markaziy Osiyo tarixi va muammolarini o'ganayotgan har bir olim ham ko'p tillarni egallash nasib qilavermaydi. Bu gapni aytishdan maqsad shundan iboratki, yua'zi bir olimlar o'zlari ko'rmay xatto guvoh bo'lmay ham o'zlarining tug'ri yoki noto'g'ri fikrlarini o'quvchilar e'tiboriga xavola qilishadi. Natijada kitobxonda uqigan narsasi haqida noto'g'ri axborot shakllanib qoladi. Biz Gapiryotgan inson esa bunday insonlari toifasidan emas, sababi u Ingliz, rus, o'zbek tillarini bilishdan tashqari Turk tilni ham yaxshi o'zlashtirgan. Til bilish

afzalligidan foydalanib bir qator davlatlarda bo`lib Davlat kutubxona va arxivlaridagi asl nusxa manbalar yordamida ma`lumotlar to`pladi.

Adib Xalid «Politics of muslim cultural reform. Jaddizm in Sentral Asia» ya`ni Musulmonlarning madaniy isloh siyosati “Markaziy osiyoda jadidizm” kitobi 2000 yili Oksford universiteti nashriyotida 335 betli “Musulmunlarning madaniy isloh siyosati “Markaziy Osiyoda jadidizm” (The Politics of Muslim Cultural Reform. Jadidism in central Asia)” kitobini nashrdan chiqaradi. Kitob kirish, 8 bob, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va qisqartmalardan iborat bo`lib, unda 1860 va 1870 yillarda Markaziy Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olishnilishi, Jadidchilarning paydo bo`lishi, maktablarda Islom bilan birga zamonaviy fanlarni ham o`qitishlari tarafdorlari bo`lishlari, Ta`lim, adabiyot va nashr qilish orqali jadidchilar Islom bilan zamonaviy bilimlar mutunosibligini vujudga keltirish uchun qilgan o`rinishlari, boshqa Islom davlatlari bilan ilmiy va madaniy aloqalar o`rnatish kabi mavzular keng yoritilgan.

A.Xalid ushbu kitobi orqali Viskonsin Madison universitetining tarix fani doktori darajasiga erishadi. Muallif Professor Adib Xalid bu va boshqa bajargan ilmiy ishlari uchun 2005 yili kelgusidagi “Sovet Islom tarixi va Markaziy Osiyo tarixini qayta yaratish” loyixalari uchun 5 ta muhim ilmiy mukofotlarga sozovor bo`ldi. Ushbu kitobning mundarijasi va unda yoritilgan mavzular qoyidagicha:

Preface – Soz boshi

- Technical Note -Tehnik izohlar
- Transliteration - Transliteratsiya
- Names and Dates - nom va sanalar
- Abbreviations - Qisqartmalar

Introduction – kirish

- Reform, Cultural Production, and Elite Strategies - Isloh, yangicha madaniyat turlari va yangi usul islohchilarining ko`zlagan maqsadlari.
- Print and the Re-Imagination of the World - Nashriyotlarning paydo bo`lishi va qaytadan dunyoni kashf etish.

- Discipline and Organize: New Forms of Sociability - tartib qoidalar va tashkilotchilik: Ijtimoiy tuzumning yangi shakli.

- Colonial Encounters in the Russian Borderlands-Rossiyaning mustamlakalik tajribasi

- Central Asia - Markaziy Osiyo

Chapter 1. Knowledge and Society in the Nineteenth Century

- Knowledge, Literacy, and Culture – Ilm olish, adabiyot va madaniyat.
- Madrasas and the Reproduction of Islam – Madrasa va Islomning yangi ko`rinishi

- State, Society, and Knowledge – Davlatchilik, Jamiyat va Bilim olish.

- The Luxury of Isolation – Ajratib qo`yishning yangi usuli

Chapter 2. The Making of a Colonial Society – Mustamlakachilik jamiyatini tuzish

- The Russian Conquest – Ruslarning bosqinchiligi
- Imagining Turkestan – Turkiston haqidagi tassavvurlar
- The End of Isolation – Cheklovlarning nihoyasi
- A New Social Map – Yangi sotsialistik xarita
- Russians and Natives – ruslar va maxalliy fuqorolar

Chapter 3. The Origins of Jadidism – Jadidizmning paydo bo`lishi

- The First Generation – birinchi (ilk) avlod
- Jadidisms - jadidchilar
- The Jadids of Central Asia – Markaziy osiyo jadidchilari.
- Colonial Sensibilities in the Age of Empire – Podshohik davridagi mustamlakalik hissiyotlari

Chapter 4. The Politics of Admonition – Siyosatchilarning o`zlarini tutishlari haqidagi ogohlantirishlar.

- Publics and Public Spheres – Davlat xodimlari va xokimiyat doiralari.
- Print and the Public – nashr va xokimiyat
- The Press – matbuot

- A New Literature – Yangicha adabiyot
- Modern Theater – zamonaviy teatr
- New Forms of Sociability – jamiyatning yangicha shakli
- A Public Sphere – Xokimiyat doiralari
- The Mirror of Admonition – ogohlantiruvchilarning nigohi
- Matters of Survival – Yangichalar uchun kurash
- Public Morality – jamiyatdagi yaxshi va yomonlarni ajratish
- The Politics of Admonition – jazolovchi siyosatdonlar.

Chapter 5. Knowledge as Salvation – Ilm ximoyachi vazifasida

- Educating the Natives – Maxalliy fuqorolarga bilim berish
- The New Method – Yangi usul
- Disowning the Maktab – Maktablarni tan olmaslik
- The Schools – maktablar
- The Advent of Schooling – yangicha bilim olish arafasida
- Desacralization – Muqaddaslashtirish
- Struggles Over Schooling – Yangicha bilim olish uchun kurash
- Official Suspicions – rasmiy shubhalarning paydo bo`lishi

Chapter 6. Imagining the Nation – Xalqni tassavvur qilish

- Premodern Identities – Zamonaviylashtirishdan ziyon ko`rganlar
- Islam and the Nation – Islom va Halq
- Romantic Nationalism – Hayoliy millat
- Sart and Tajik – Sart va tojiklar
- Watan – Vatan
- Language – Til
- The Muslims of Turkestan – Turkiston musulmonlari

Chapter 7. Navigating the Nation – Halqning etnografisi va yo`nalishi

- The Location of the Nation – Millatning joylashgan o`rni
- Women and the Nation – ayollar va millat
- The Jadids in Politics – jaddichilar siyosatda

- The All-Russian Muslim Movement – Butun Rus imperiyasidagi musulmonlar xarakati

- Turkestan in the State дума – davlat Dumasida Turkistonning o`rni
- A Muslim Voice in Turkestan – Turkistonda Musulmonlar ovozi
- Of National Interest – Halq istaklari

Chapter 8. 1917: The Moment of Truth-Haqiqat oni

- Colonial Revolution-Mustamlakalikdan qutulish uchun inqilob.
- Muslim Politics- Musulmonlar siyosati
- Bread and Revolution- Non va inqilob
- Experiment in Government-davlat boshqaruvidagi tajribalar.
- Epilogue-epilog
- The Transformation of Jadidism-Jadidizmning o`zgarishi
- Toward Soviet Power-Sovet ittifoqi tomoniga og`ish
- Muslim Communists-Musulmon kommunistlar
- Soviet Central Asia- Markaziy Osiyo Sovetlar davrida

Bibliography-Foydalanilgan adabiyotlar

Archival Sources

A.Xalid ushbu kitobi orqali Viskonsin Madison universitetining tarix fani doktori darajasiga erishadi. Muallif Professor Adib Xalid bu va boshqa bajargan ilmiy ishlari uchun 2005 yili kelgusidagi “Sovet Islom tarixi va Markaziy Osiyo tarixini qayta yaratish” loyixalari uchun 5 ta muhim ilmiy mukofotlarga sozovor bo`ldi

I.3. Abdurauf Fitrat faoliyatining o`rganilishi: o`ziga xos yondashuv va qarashlar

XX asr o`zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili, qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyachisi, o`tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publitsit , nosir va jurnalist, o`qituvchi va ma`rifatparvar, talantli davlat va jamoat arbobi sifatida Abdurauf Fitrat adabiyotimiz tarixida muhim salmoqli o`rin egallaydi. Fitrat O`rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi o`zbek adabiyotining asoschilaridan, usuli jadid maktablarining nazariyotchisi va amaliyotchisi bo`lgan. O`zbek adabiyoti tarixini, ayniqsa 20-yillar adabiyoti tarixini Fitratsiz tasavvur qilish qiyin. Fitrat hayoti va ijodining o`rganilishi masalasi va adabiyotimiz tarixida tutgan o`rni beqiyosdir.

Abdurauf Fitrat o`z tarjimai holida yozishicha, 1884-yilda Buxoroda tug`ilgan (Sadriddin Ayniy uni 1886-yilda dunyoga kelgan deydi, hozirgi darsliklar va ilmiy tadqiqotlarda ham shu sanani takrorlashadi) .Uning otasi Abdurahimboy o`z davrining ziyoli va davlatmand kishilaridan bo`lgan,savdo bilan shug`ullangani bois chet yellarga chiqar, dunyo ahvolidan boxabar,o`qimishli va taniqli odam yedi. U 1918 yilgacha Qashqarda turib qoladi. Onasi Mustafibibi (oilada uni Bibijon deb atashgan) badiiy zavqi baland, zukko, o`qimishli ayol bo`lgan. Oilada Abduraufdan tashqari Abdurahmon nomli ukasi, mahbuba ismlisinglisi bor yedi. Keyinchalik ular ham ziyoli kishi bo`lib yetishganlar.

Abduruf Fitrat asosan onasi Mustafo bibi (Bibijon) tarbiyasida bo`lib, Navoiy, Uveysiy, Zebunniso, Bedil, Fuzuliy, Umar Hayyom kabi ulkan shoirlarning g`azallarini birinchi onasidan tinglaydi va ularning asarlariga havas qiladi.

U Buxoro, Istambul madrasalari va dorilfununlarida o`qiydi. “Mir Arab” madrasasining mudarrisi G`ofir Xoji Razzoq o`g`lining xabar berishicha, Abdurauf o`sha davr yeski maktablaridan birida, so`ng mashhur “Mir Arab” madrasasida o`qidi. Talabalik yillarida, taxminan 18-19 yoshlarida otasi bilan haj ziyoratiga borgan , qariyb bir yilga yaqin davom etgan bu ziyorat safarida Eron , Turkiya, Suriya va Saudiya Arabistonida bo`lgan va ularda istiqomat qiluvchi xalqlarning

turmush tarzi va madaniyati bilan tanishgan. Shuningdek, u Markaziy Rusiyaning Moskva, Peterburg shaharlariga ham sayohat qiladi.

U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli SHarqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o`zlashtiradi. Arab tilini ham qunt bilan chuqur o`rganadi. U shaharda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga , ayniqsa,jadidchilik harakatlariga qiziqib qaradi.O`zining aytishicha , avval jadidchilik harakatiga qarshilik qildi,keyin uning mohiyatini anglab yetgach , bu harakatga qo`shildi , hatto ashaddiy targ`ibotchilaridan biriga aylandi.O`sh paytlarda Buxoroning kelajagi to`g`risida qayg`urgan bir guruh ma`rifatparvar va ochiq fikrli kishilar yashirincha "Tarbiyati atfol" ("Bolalar tarbiyasi")jamiyatini tuzadilar.Ushbu hayriya jamiyati yoshlarni zamon talablari darajasida o`qitish orqali o`rta asrlar darajasida to`xtab qolgan mamlakatning taraqqiyotini yo`lga qo`yish maqsadida faoliyat ko`rsatardi.Fitrat 1909-yilda "Tarbiyati atfol" xayriya jamiyati orqali tahsil olish uchun Turkiyaga jo`natilgan dastlabki besh iste`dodli yoshlarning biri sifatida Istanbulga yuboriladi. Uning taqdirida Turkiya xayoti muhim ahamiyat kasb etadi. 1909-1913 yillarda Istanbuldagi "Voizon" madrasasida o`qiydi va bo`lajak adib u yerda o`qish bilan kifoyalanmay "Buxoro ta`mimi (umumiy) maorif" jamiyatini tuzadi va Voizon madrasasida mustaqil ma`ruzalar o`qiydi. Turkiyaning Istambul dorilfununidagi to`rt yillik tahsil Abdurauf Fitrat dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Turkiyadagi hayoti Fitratning dunyoqarashi , siyosiy ongi va adabiy didini o`zgartirib, o`stirib yubordi.Turkiston xalqi hayotiga Turkiyadagi o`zgarishlar va ilg`or mamlakatlar nuqtai nazaridan qaray boshladi: diniy xurofotlarni keskin tanqid qilishga , hatto dinni , maktab-maorifni va Turkistondagi idora usulini isloh etish g`oyasi bilan nafas oldi.

Turkiyada tashkil etilgan "Buxoro ta`mimi (umumiy) maorif" uyushmasida faollik ko`rsatadi. Behbudiy asos solgan jadid usulidagi maktablar takomiliga xizmat qiladi. 1909-1913 yillarda Turkiya dorilfununida o`qiyotgan paytda uning zukkoligi, bilimdonligi professor-o`qituvchlarni hayratga soladi. Unga "Fitrat" ya`ni, *donishmand* taxallusini beradilar. Turkiyada tahsil olgan yillardan boshlab vatan va xalq taqdiri uchun kuyunish Fitratning butun faoliyati asosini tashkil

etadi. Fitrat ijodi Turkistonda inqilobiy harakatlar kuchaygan, “SHarq uyg`ongan” davrlarga to`g`ri keladi. 1913 yili Buxoroga qaytib keldi. SHahrisabz va Karshida yangi maktablar ochdi. 1914-yilda Fitrat Buxoro,Samarqanddagi qizg`in adabiy jarayon madaniy , maorif ishlariga va siyosiy harakatlarga faol aralashib ketdi.Fitrat jadid maktablarini ochish va bolalarni yangicha tartibda o`qitish ishlari bilan astoydil shug`ullandi. Qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biriga aylandi. U kishilarning ongini o`zgartirmay turib,mamlakatni o`zgartirish, uni taraqqiy ettirish mumkin emas degan fikrda edi. Buning uchun millatning katta qismini ma`rifatli, dunyoviy ilmdan, texnikadan habardor qilishdan boshqa yo`l yo`q edi. Jadid maktablarida zamonaviy fan-texnikani yegllashga xizmat qiladigan saboqlar berilishiga yerishish jadidlar oldidagi yeng muhim vazifalardan hisoblanardi. Jadidlar ma`rifatchilik borasidagi orzulariga erishish uchun mamlakat siyosiy tuzumi imkoniyat beradigan tarzda bo`lishi lozimligini yaxshi anglaganlar. SHuning uchun ham 1917-yil fevral inqilobidan keyin "YOsh buxoroliklar"siyosiy inqilobiy partiyasi tuzildi. “YOsh buxorolilar” ning siyosiy kurashlaridagi faol ishtiroki, maorifni isloh etish, jadidchilik harakatlaridagi jiddiy izlanishlar tufayli tug`ilgan savollariga Turkiyaning zamonaviy kechmishlaridan javoblar qidirdi.

1917 yilga qadar uning qarashlarida, asosan, ma`rifatparvarlik g`oyalari yetakchilik qilgan. 1917-yil Fevral inqilobida Fitrat o`z orzularini ham ko`rgandek bo`ldi, biroq Oktabr to`ntarishi uning teran dunyoqarashiga yangi titroqlar soldi.1917 yili Fevral voqealaridan so`ng siyosiy faoliyat bilan shug`ullandi. “YOsh buxorolilar” inqilobiy partiyasiga sarkotib bo`lib saylandi. Samarqandlik ilg`or yoshlarning “Hurriyat” (1917) gazetasida keskin maqolalar bilan chiqdi. Ko`p o`tmay, unga redaktorlik qildi. (1917 yil 27-sondan 1918 yil 87-sonigacha). YAngi Rusiya Muvaqqat hukumati bilan o`zaro tenglik aloqalarini yo`lga qo`yish ishlarida faol qatnashdi. Biroq, bir tomondan, amir va u suyangan mutaassib a`yonlar, ikkinchi tomondan, chor kalonial siyosatining bolsheviklar tomonidan o`zgarishsiz qolishi Yash buxoroliklarning mustaqillik va demokratiya haqidagi orzulari amalga oshishiga yo`l bermadi. Fitrat oktyabr to`ntarishini xursandchilik

bilan kutib oladi. Biroq fevral inqilobi va oktyabr to'ntarishi natijasida tug'ilgan umid uchqunlari o'zini oqlamadi. SHu sababli "bolshevik balosi" bosh ko'targan 1917 yilning Oktyabrini "Yurt qayg'usi" deb baholadi. 1917 yilgi Turkiston muxtoriyatini so'ngsiz mehr bilan qarshi oldi. U e'lon qilingan 27 noyabrni "Milliy laylatulqadrimiz" deb atadi. Ammo, u kelajakdan umid uzmad, baribir vatanni - Turkistonni milliy mustaqil ko'rish, xalqimiz jahondagi taraqqiy yetgan xalqlar qatorida bo'lishini hohlash uning asosiy orzu armonlari yedi. SHuning uchun ham u butun faoliyatini shu niyatlar bilan bog'ladi. To'lqinli asarlari bilan xalq ko'zini ochish, o'zligini anglashni oliy burch deb bildi. U ham o'z salafkari kabi avvalo ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Uning 1913 yilda tojik tilida yaratilgan "Munozara" nomli asarida o'z xalqini zulm botqog'idan qutqarib, "najat yo'li"ni izlaganligi seziladi.

Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga kelsak, Fitrat "YOsh buxoroliklar" harakatining so'l, radikal qanotiga boshchilik qilgan. 1919-1921 yillarda "CHigatoy gurungi"ning rahbari bo'lgan. 1920 yilda Buxoroda xalq demokratik respublikasi tuzilgandan keyin uning tashkilotchilari bo'lgan Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja va Abduqodir Muhiddinov kabilar tomonidan Abdurauf Fitrat Buxoroga chaqirib olindi. Fitrat yangi tashkil etilgan respublikada dastlab tashqi ishlar xalq vaziri, so'ngra, maorif vaziri va Markaziy Ijroqo'm raisining o'rinbosari kabi yuksak va ma'suliyatli lavozimlarda ishladi. Ammo Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro hukumati rahbarlarining millatning taraqqiyoti uchun olib borayotgan keng ko'lamdagi ishlari Moskvaga yoqmaydi. Hukumatni kuchsizlantirish maqsadida kommunistik partiya tomonidan eng nufuzli siyosiy arboblarning turli bahonalar bilan badnom qilindi. Masalan, 1923 yil 12 iyunda bo'lib o'tgan kommunistik partiyaning Plenumida Moskva Buxoro xukumatining tarkibi boy, savdogarlardan iborat bo'lib qolgan degan ayb bilan hukumat a'zolidan besh kishini, shu jumladan Fitratni ham chaqiradi. Fitrat Moskvaga ketishga majbur bo'ladi. Bu davrda rus tili va rus madaniyatini targ'ib qilish ham Fitrat ma'rifatparvarligi yo'nalishining muhim tarmog'i bo'lgan. Fitrat matbuot orqali ham o'z g'oyalarini targ'ib etishga intildi. Xuddi shu yillar "Hayot yo'lida birinchi

masala - maktab masalasidir” (“Hurriyat”, 1917 yil, 1-son) degan shior bilan chiqadi. Uning “Hurriyat” (1917, 31-son) ro`znomasida bosilgan “YUrt qayg`usi...” nomli lavhasida Turkiston uchun, uning ayollari ozodligi uchun kurashga bel bog`laganligini aytadi. “Men sen uchun tug`ildim, sen uchun yasharman, sening uchun o`larman, yey turkning muqaddas o`chog`i!” degan da`vat yeshitiladi. “Ulug` Turkiston” (1917, 2-son) ro`znomasida “YAshasin turklik, yashasin Islom” degan shiori bilan chiqadi. Uning “Hind ixtilolchilari”, “Temur sag`anasi”, “O`g`izxon”, “Abo Muslim”, “Turk tili” kabi asarlarida ham hurfikrlar, qarashlar, ko`zga tashlanadi. Shular qatorida “Qon”, “Begijon”, “CHin sevisish”, “To`lqin”, “Vose` qo`zg`oloni”, “Ro`zalar” kabi dramalari yaratildi.

1921- 1923 yillarda u Respublika Maorif xalq noziri bo`lib xizmat qildi. U 1923-1924-yillarda Moskvadagi Lazarevlar nomidagi SHarq tillari institutida (hozirgi Osiyo va Afrika instituti) va Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg ) Akademiyasida ishladi. “O`zbek tili” darsligi, “O`zbek tili sarfi” (grammatikasi) kitoblari esa 1925-1930 yillarda besh marta chop yetildi. Uning “Tilimiz”, “O`zbekcha til saboqlari”, “Imlo konferensiyasi munosabati bilan” maqolalari ham yaratildi. U ana shu ishlari uchun SHu ilmiy dargohning tavsiyasi bilan Abdurauf Fitrat o`zbek olimlari orasida birinchilardan bo`lib professor degan yuksak ilmiy unvonga sazovor bo`lgan. Biroq birinchi o`zbek professori Fitrat o`zga yurtda ishlashni hohlamay, Toshkentga qaytib keldi. Fitrat Toshkentda ham ilmiy faoliyatini qizg`in davom ettirdi .U adabiyot tarixi va nazariyasi,o`zbek tili qoidalari va musiqa tarixiga bag`ishlangan o`nlab kitoblar yozdi.1927-yilda Samarqand pedagogika akademiyasi (hozirgi Samarqand Davlat Universiteti)da SHarq tillari kafedrasini boshqardi. 1931-1932- yillarda yana Toshkentga qaytgan olim O`zbekiston Respublikasi Fanlar qo`mitasida, O`zbekiston madaniyat institutida ishladi.Til va Adabiyot institutida yoshlarning ilmiy faoliyatiga rahbarlik qildi (Akademik yozuvchi Izzat Sulton Fitrat domlaning umidli aspirant-shogirdlaridan edi). Bu yillarda u she`rlar , pe`salar bilan birga nihoyatda ko`p va ilmiy teran asarlar yozdi.

Shoir ijodida, dunyoqarashida siljish, yangilikka, go`zallikka intilish seziladi. Xuddi shu hol uning “Abulfayzxon”, “Arslon” va “Vose” (tojik tilida), kabi dramalari g`oyasida ham seziladi. Uning “Qiyomat”, “SHaytonning tangriga isyoni” kabi nasriy asarlarida yendi ijodkor falsafasining chuqurlashganligi, katta ijtimoiy-hayotiy muammolarni hal etishga intilishi ko`zga tashlanadi.

Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida ham bir qancha asarlar yaratgan. Jumladan, “Adabiyot qoidolari”, “Eski o`zbek adabiyoti namunalari”, “Aruz haqida” kabi ilmiy kuzatuvlari adabiyotshunoslik fani tarixida muhim rol o`ynaydi. SHuningdek, uning Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil, M. Solih, Muqimiy, Furqat haqidagi tadqiqotlari ham adabiyotimiz tarixini o`rganishda muhim manba bo`lib xizmat etishi shubhasiz. U Ahmad YAssaviy, Sulaymon Boqirg`oniy kabi o`ndan ortiq mumtoz adabiyot vakillari haqida maqolalar yozgan. Fitrat ayni chog`da olim, ulkan pedagog, xalq maorifi tashkilotchisi sifatida ham faol ishladi.

Fitrat 1938 yil 4 oktyabrda Abdulla Qodiriy, CHo`lpon, Otajon Hoshim, Qayum Rhamazon, G`ozi Olim kabi xalqimizning buyuk ziyolilari qatorida qatl etildi. Tarix bunday nohaqlikni ko`rmagan edi , chunki ularni otish haqidagi hukm bir kundan keyin ya`ni hukm ijro etib bo`lingandan keyin 1938-yil 5-oktabrda chiqqan.1957-yilda sobiq Ittifoq Oliy sudining harbiy kollegiyasi 1938-yil 5-oktabrdagi hukmini bekor qildi va Abdurauf Fitratni aybsiz deb e`lon qildi. Oqlandiyo, qariyb yana o`ttiz besh yildan so`nggina, mustaqillik davri sharofati bilan u haqidagi haqiqatni aytish va yozish imkoniyati tug`ildi.

Abdurauf Fitrat o`zining oz va soz lirikasi, ko`pqirrali dramaturgiyasi , jangovar publitsistikasi va katta hajmdagi chuqur ilmiy-tadqiqotlari bilan ko`pqirrali va sermahsul ijodkordir. Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat , turg`unlik , g`aflatdan uyg`otish , ilm-ma`rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi. U o`zbekning o`zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug`vor kashfiyotlar qilishga, birlashgan, kuchli, qudratli davlat tuzishga va dunyoning ilg`or madaniy mamlakatlariga yetib olishga chaqirdi. Uning butun ijodining mohiyati xalqning

qalb ko'zini ochishga va mehnat, yaratish, o'qish-unish, kurashga da'vatdan iboratdir. Abdurauf Fitrat hayoti va adabiy faoliyati ziddiyatlarga o'ta boyligi bilan ajralib turadi. 1991 yil 25 sentyabrda Abdurauf Fitratga o'zbek dramaturgiyasini rivojlantirishdagi, realistik adabiy tanqidchilik hamda adabiyotshunoslik maktabiga asos solishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi.

Biz fitrat ijodini o'rganilishiga nazar tashlasak biz Abdurauf Fitrat haqida ilk ma'lumot bergan kishi Buxoro amiri Abdulahadxonning saroy xodimlaridan bo'lgan Hoji Ne'matulla Muhtaram ekanligiga guvoh bo'lamiz. U «sarrof Hoji Abdul Rauf valadi Abdul Rahim sarrof»ni «Mijmar» taxallusi bilan o'zining «Tazkiratush-shuaro» (1910) siga kiritadi va u haqida ikki og'iz ma'lumot berib, she'rlaridan birini namuna sifatida keltiradi.

Fitratning 1327 yil hijriy (1909—1910 milodiy) yillarda Istanbulda bosilgan dastlabki asari «Munozara» Turkistonda juda tez aks-sado berdi. 1912 yilda Hoji Muin o'zbekchaga tarjima qilib, «Turkiston viloyatining gazetisi»da bosdirdi. 1913 yilda Mahmudxo'ja Behbudiy so'ngso'zi bilan alohida kitob holida chop etildi. Shu yili rus tiliga ag'darilib, oz sonda kitob bo'lib chiqdi. 1916 yilda «Turkestanские ведомости» gazetasining 13, 15, 20 oktyabr sonlarida V.B. Andreevning u haqidagi taqrizi bosildi.

Ozod Sharafiddinov Fitratning o'smirlik yillari, biografiyasi, Istanbulda boshlagan ijodi bilan bog'liq manbalar ishonchli emasligi va bu borada qo'shimcha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadgan masalalar borligini aytgan edi.

Sho'ro davrining ilk yillarida u haqida fikr bildirgan taniqli mutaxassislardan akademik A. N. Samoylovich bo'ldi. U o'zining 1919 yilda e'lon qilgan «Turk xalqlari adabiyoti» kitobida va bir qator maqolalarida Fitratning faoliyati hamda ijodiga to'xtaldi, baho berdi.

20-yillarda Fitratning «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari», «Abo Muslim» dramalari sahnaga qo'yilishi bilan ular haqda ko'plab taqrizlar yozildi. 1922 yilda «O'zbek yosh shoirlari» to'plami chop etildi. 104 sahifalik ushbu majmua Fitrat,

Cho'lpon, Botu, Elbeklar she'rlaridan tashkil topgan edi. Adabiyotshunos va tanqidchi Abdurahmon Sa'diy «O'zbek shoirlari» nomi bilan «Turkiston» gazetasining 1924 yil 12 yanvar sonida katta maqola—taqriz bilan chiqdi. 1923 yilda adibning «Qiyomat» hikoyasi Nazir To'raqulov so'zboshisi bilan Moskvada bosildi. Tanikdi davlat va madaniyat arbobi uni mashhur Dantening «Ilohiy komediya»siga qiyos etdi. Adibning «Hind ixtilolchilari» dramasini Olmoniyada tahsil olayotgan talabalar Berlinda nashr ettirdilar. Vadud Mahmud u haqda maqola bilan chiqdi.

1924 yilda «Abulfayzxon» dramasi Moskvada chop qilindi...

Ko'ringanidek, 20-yillar Fitrat ijodining eng sermahsul, ayni paytda, buyuk e'tirof yillari bo'ldi. U haqda shoirlar ham, olimlar ham, davlat arboblari ham yozdilar. Deyarli hammalari u yozgan asarlarning joziba kuchi, teran ma'nosi, keng qamrovi haqida yaqdil bo'ldilar. Biroq jadidchilikka qarshi kurash boshlanganida birinchi nishon Fitrat va uning asarlari bo'ldi. 20-yillarning ikkinchi yarmida Fitratga qarshi hujum avjiga mindi. Uning «Eng eski turk adabiyoti namunalari. Adabiyotimiz tarixi uchun materiallar» (O'zdavnashr, Samarqand-Toshkent, 1927) va ayniqsa, «O'zbek adabiyoti namunalari» (Samarqand-Toshkent, 1928) kitobi atrofida sho'ro mafkurachilari katta janjal chiqardilar. CHek Jalil Boybo'latov degan firqa jurnalisti zimmasiga tushdi. Markaziy gazeta «Qizil O'zbekiston»ning uch sonida Fitratni «panturkist», «panislomist», «opportunist» kabi bir qator siyosiy «ayb»lar bilan qoralab chiqadi. Fitrat matbuot orqali javob berishga majbur bo'ladi. «YO'pishmagan gajaklar» nomi bilan Jalil Boybo'latovga yozilgan ushbu xat «Qizil O'zbekiston» gazetasining 1929 yil 15—16 sentyabr sonlarida bosilib chiqadi.

Fitrat hayoti va ijodining yangicha talqini 70-yillarning o'rtalaridan ko'zga tashlana boshladi. E.Karimovning «O'zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti» kitobi bu boradagi jiddiy qadamlardan bo'ldi. Lekin uni adabiyotdagi amaldorlar qabul qilmadilar. Muallif va u ishlagan tashkilot partiyaviy jazo oldi. Bu, tabiiyki, Fitratni qayta kashf etish jarayonini sezilarli darajada sekinlashtirdi. 1983 yilda Ahmad Aliev «Adabiy meros va zamonaviylik» kitobida g'oyat ehtiyotkorlik bilan

Fitrat asarlarini adabiyotshunoslik va tanqidchilik qayta ko`rib chiqishi lozimligi haqidagi mulohazani bildirdi. Shuning o`zi ham kitobning muhokama qilinishi, muallifning dashnom eshitishiga sabab bo`ldi.

Demokratiya va oshkoralik deb nom olgan 1985 yildan keyingi davrda Fitrat asarlariga bir qadar xolisona yondashish imkoniyati paydo bo`ldi. U. To`ychiev, M. Yunusov turli munosabat bilan uning asarlariga murojaat etdilar, biroq talqinlarda jildiy o`zgarish sezilmadi.

1988 yil 3 iyunda «O`zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida taniqli adabiyotshunos olimlar Izzat Sulton va Salohiddin Mamajonovlarning «Madaniyatimizning ikki siymosi» maqolasi e`lon qilindi. Mualliflar Fitrat ijodini o`rganish va munosib baholash kechiktirib bo`lmaydigan vazifalardan ekanligiga diqqatni qaratdilar. Nihoyat, 80- yillarning oxirlaridan Fitrat asarlarini o`rganishda yangi bir bosqich paydo bo`layotgani ko`zga tashlandi. Bevosita adib asarlarini nashr etish, o`quvchilarga yetkazish ishlari boshlandi. Matbuot sahifalarida uning ilmiy, badiiy, publitsistik asarlaridan namunalar e`lon qilina boshladi. «SHarq yulduzi» jurnalining 1989 yil 1-sonida E. Karimov so`zboshisi bilan adibning mashhur asarlaridan «Abulfayzxon» dramasi chop etildi. Uni Safo Zufarov nashrga tayyorladi. 80-yillardan keyin Fitrat haqida yozilgan maqolalarning o`ziyoq 200 dan ortiqdir.

90-yillardan adabiyotshunosligimizga bir qator iste`dodli yoshlar kirib keldilar. Jumladan, H. Boltaboev «Noma'lum Fitrat» nomli maqolasida («Yoshlik» j. 1990 y., 4-son) ilk bor mashhur adibning asarlari ro`yxatini tuzib, e`lon qildi. Fitrat ijodini xolisona o`rganish va baholash mustaqillikdan keyin ilmiy va rejali asosga ko`chdi. O`tgan yillar ichida uning ko`pgina asarlari nashr etildi. Ular haqida ilmiy-tadqiqot ishlari yaratildi. Ko`plab nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari yozildi. Uning keng qamrovli, qomusiy merosi birgina adabiyotshunoslar, tilshunoslar emas, tarixchilar, huquqshunoslar, musiqashunoslar, elshunoslar kabi juda ko`p va xilma-xil soha mutaxassislarini o`ziga jalb etmoqda. Istiqlool davrida u haqda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalaridan quyidagilarni ko`rsatish mumkin. Adabiyotshunoslik bo`yicha:

H. Boltaboev. «XX asr o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi» (T., 1996 y.); I. G'aniev. «Fitrat dramalari poetikasi» (T., 1998 y.). Falsafa fanlari bo'yicha:

B. Ergashev. Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy g'oyalarining shakllanishi va taraqqiyoti tarixidan. Yosh buxorolilar mafkurasi, T., 1993;

Huquqshunoslik bo'yicha:

D. Toshqo'ziev. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning birinchi choragi O'zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy tafakkurining asosiy yo'nalishlari, T., 1995.

Bugun adibning bosilib chiqqan va chiqayotgan kitoblarini bir yerga to'plasa, salmoqli meros bo'ladi. Ayniqsa, adib asarlarining ko'p tomligi nashri boshlanganligi va uning 5 jildi nashr etilganligi muhim hodisa bo'ldi. Ular haqida risolalar, katta-kichik kitoblar nashr qilindi.

II-BOB ABDURAUF FITRATNING IJODIGA XORIJLIK OLIM VA ADABIYOTSHUNOSLARNING QARASHLARI

II.1.Sovuq urush davri adabiyoti xorijlik olimlar tomonidan qilingan tadqiqi

Ma`lumki, 80 yillar sungida ayniqsa sobiq ittifoq parchalangandan so`ng ma`lum bir darajada o`rganilib kelayotgan jaddid nomoyondalari ma`rifatchilik yo`lida ko`rsatgan jonbozliklari va yaratgan asrlari yangicha qarashlar va o`tmish davri zaruriyatlarini xisobga olgan xolda o`rganishlar boshlandi. Ular haqida va yozgan, hali qo`lyozma xolida saqlanib kelayotgan asarlari kitob va qo`llanma shakllarida chop etila boshladi. Bu kabi savobli ishlarni O`zbek olimlaridan N. Karimov, O.SHarofiddinov, A. Aliev, Baxodir Karim, D. Quronov, Boybo`ta Do`stqoraev va boshqa ijodkor olimlar amalga oshirishga astoydil bel bog`lashdi. Ular yaratan ijodiy ishlariga yaqqol misol qilib istiqlol qaxramonlari ruknida yaratilgan bir qator to`plamlarni, hamda nomoyondalarimiz hayoti va ijodini o`z ichiga olgan ko`plab risolalarni tilga olsak bo`ladi. Ijodkor olimlarimiz hali hech kim o`rganishga jazm etmagan ma`lumotlarni kitobxonlar etiboriga xavola etib, jaddid nomoyondalari haqida aniq fakt va dalillarni ochib bera olishdi.

Jadidchilarning ma`rifatchilik yo`lida olib kirgan yangiliklari yoki ularning ijodlari nafaqat o`zimizning olimlarimiz va xalqimiz tomonidan qiziqib o`rganiladi balki, xorijlik olimlar va kitobxonlarni ham o`ziga jalb etadi. Bu borada adiblarimizning bir qator asarlari ingliz va nemis tillariga tarjimalar qilingan. Asarlarni xorijiy tillarga qay tarzda tarjima qilinganligi tarjimonlar ko`proq nimalarga etibor berganliklari ko`pgina ilmiy ishlar uchun asosiy manba vazifasini o`tamoqda. Misol uchun: Amerikalik olim edvord Olvort Jadidchilar va o`zbek adiblari ijodi va xayotini yoritib bepgan “Modern Uzbeks” kitobini va bir kator asarlarni ingliz tiliga tarjima qilib nashr ettirdi. Z. Mirzaeva amerikalik olim edvord Olvortning Behbudiy tomonidan yozilgan “Padarkush”(The Patricide) asarini taxlil qilingan²⁴. U tarjimaga quyidagicha baho berib, “mutarjim boshqa jaddid davri asrarlarini inglizchalashtirishda yo`l qo`ygan kamchiliklar (so`z va

²⁴ Филология масалалари. 1(8) сон 2005 йил 124 бет. “Падаркуш” тажмаси хусусида

majoziy ma'noli iboralarni tushunmaslik oqibatida tashlab ketilishi, siyosiy ta'sirga berilib, o'zbekcha matnning asliyatdan farqli o'zlashtirilishi va xatto so'z-iboralarni to'laligicha tushuna olmaslik...ni) bartaraf etib, dramadagi Behbudiya xos uslubni saqlab qolgan"²⁵ tarjimini taxlil qiladi. Olim Bahodir Karim o'zining "Abdulla Qodiriy" deb nomlangan risolasida xorijda qodiriyshunoslik doirasidagi muloxazalarni talqin etgan²⁶.

Inglizchalashtirilgan tarjimalarga nazar tashlasak, ular bir qator tarjimonlar tomonidan tarjima qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Misol tariqasida Voshington Universitetida faoliyat ko'rsatayotgan tarjimon Karolin Veyni olishimiz mumkin. U Xoji Muinning "Mazluma xotin" (the oppressed wife) va Oybekning "Bolalik" (The childhood) asarlarini qisqartirilgan xolda inglizchalashtirgan. Tarjimon asarlar tarjimasida o'zbek realiyalarini o'g'irishda bir oz kamchiliklarga yo'l qo'ygan, ammo bu nuqsonlar asar mazmuniga va kitobxon ongiga tug'ri etib borishiga salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

Abdurauf Fitratning "Xindistonda bir Farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida munozarasi"(Debate between a teacher from Bukhara and a European²⁷) asarini Amerikalik olim Villiam Xannavey tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. U asarni 1911-1912 yillarda Istambulda nashr etilgan "Matba-i islamia-i Xikmat" jaridasining 30-53betlarida fors tilida e'lon qilingan "Munozarai Mudarrisi Bukxarai makatib-i Jadida" nusxasidan tarjima qilgan.

Amerikaning Karolina universitetida faoliyat ko'rsatayotgan professor Adib Xolid xam nomoyondalarimizning bir qator asrlarini tarjima qilgib inglizzabon kitobxonlar e'tiboriga xavola etgan. U Munavvar Qorining Turkiston gazetasining 1906 yil 26 sentyabrdagi sonida nashr etilgan "Islax ne demakdur" (What is reform) asarini, Abdulxamid Sulaymon Cho'lponning "Sadoi Turkiston"ning 1914 yil 4 iyul', 25 iyul', 26 oktyabr', 5 noyabrdagi sonlarida nashr ettirilgan, xamda Sirojjiddin Axmad va Ulug'bek Dolimovlar tomonidan "SHarq yulduzi" jurnalining 1992 yil 1-soni 132-138 betlarida qayta chop etilgan "Doktor

²⁵ Ўша мақола 125 бет

²⁶ Баҳодир Карим "Абдулла Қодирий". Тошкент. "Фан" 2006 йил . 203-221 бетлар

²⁷ Чалез Курцман. "What is reform"

Muxammadyor” (Doctor Muhammad-yar) asarlarini tarjima qilgan. Bulardan tashqari A. Xalid Behbudiyning 1913 yilda yozgan “Padarkush” (The Patricide) asarini xam qisqartirilgan xolda tarjima qilgan. A. Xaliddan oldinroq bu asarni yana bir olim edvord Olvort to`liq tarjima qilganligidan xabarimiz bor. Uning tarjimasi 1986 yilda Ural oltoy yilnomasining 84-93 betlarida bosilib chiqqan. edvord Olvort bu asarni (Murder as metaphor in the first Central Asian drama) O`rta Osiyodagi birinchi drama deb xisoblaydi.

XX asr boshlarida Turkistonda mavjud siyosiy- ijtimoiy voqealar o`zbek adabiyotiga ham jiddiy ta`sir o`tkazdi. 70 yil davom etgan sovet senzurasini sabab milliy tiklanishda yetakchilik qilgan Cho`lpon, Qodiriy, Fitrat, Behbudiy singari ijodkorlar yaratgan badiiy asarlar tagzaminidagi chin mohiyat – Ozodlik mavzusidagi ijtimoiy– siyosiy g`oyalar butunlay inkor qilinib, ularga salbiy munosabat bildirilayotgan bir paytda Amerika o`zbekshunoslari birinchilardan bo`lib bu haqiqatlarning asl mohiyatini targ`ib qila boshladilar. Ular bunday hurfikrlarni xorijda turib aytganliklari haqiqatni bayon qilishlari uchun asos bo`lganligini ham ta`kid etmoq zarur. Ammo shunisi achinarliki, biz xorij olimlari tadqiqotlarini original manbalar emas, rus tiliga qilingan noto`g`ri tarjimalar asosida tahlil qilib, ularning “qarashlarini g`oyaviy va mafkuraviy dushmanlarimizning kirdikorlari va tuhmatlari, burjua g`animlarimizning nayranglari deb baholadik ”.

Yigirmanchi asr yangi o`zbek adabiyotining tamal toshini qo`ygan Bexbudiy, Fitrat, Qodiriy va Cho`lpon singari ulug` adib va olimlar faoliyati sho`ro davrida, xar kancha "bekitiq"larga qaramay o`z davridayoq xorijiy olimlarning e`tiborini tortib ulgurgan edi. Ayniqsa, buyuk ma`rifatparvar, serqirra ijodkor Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiga qiziqish o`z davridayoq boshlangan edi. Uning ijodi hatto xorijda ham keng miqyosda o`rganilgan va o`rganilmoqda. Fitrat ijodining ilk boskichiga mansub "Sayxa", "Munozara", "Sayyoxi xindi" kabi asarlari, o`zbek adabiyoti, san`ati tarixi xamda nazariyasiga doir ishlari xorijiy olimlarning diqqat markazida bo`lgan. Ular o`zlarining tadqiqotlarida Fitrat asarlarining ko`p jixatlarini o`rganganlar, ayrim qirralari haqida tadqiqot va maqolalar yaratganlar.

Masalan, yapon olimi Xisao Xumasu, fransuz olimi Eden Karrerde Ipkaus, nemis olimi I. Baldauf, amerikalik olim Eduard Olvordlar tomonidan adabiy hamda ko'proq siyosiy maqsadda o'rganilgan.

Abdurauf Fitratning 1909-14 yillar Istanbulda taxsil munosabati bilan bo'lishi tufayli u haqidagi xorijdagi ilk ma'lumotlar xam Istanbul matbuotida e'lon kilindi. 1910-yillar Buxoroning ahvoli haqida qator maqolalar e'lon qilgan G'iyosiddin Xasaniy "Xoji Abduraufni Buxorodagi maktabchilik xarakatlarining faol a'zolaridan biri sifatida xamda "Tarbiyati atfol" va uning xorijiy shu'basi "Ta'mimi maorif jamiyati"ning quruvchilaridan" biri sifatida tilga oladi²⁸.

Ma'lumki, Fitrat Buxoro jumxuriyatida xalk noziri sifatida faoliyat kursatarkan, Germaniyaga 70 talaba yuborib, ularni turli xil o'quv yurtlarida ma'lumot olishlari uchun sharoit xozirlagan edi. Bu yoshlar Yevropaning markazida taraqqiy etgan bir mamlakatda o'z tillarini unutib, olmon tiliga shung'ib ketmaganlar. Arxiv materiallarining guvoxlik berishicha, ular uchun Berlinda aloxida masjid qurib berilgan, o'z tillarida adabiyot to'garaklari uyushtirilgan. Buxoro Milliy xukumati bunday yoshlarning adabiyot soxasidagi mashqlari uchun 1923 yili mart oyidan boshlab alohida "Uchkun nomli jurnal xam tashkil etib bergan ekan. Mana shu yoshlar o'sha yillari Chulpon va Fitrat asarlarini o'z tilimizda Berlinda bir necha marta nashr etganlar"²⁹. Fitratning "Hind ixtilolchilari" dramasi xam dastlab Berlinda nashr etilgani va asarga olmon adabiyotshunoslarining e'tibori tortilgani bu fikrning guvoxidir³⁰.

20-yillarning oxirida Berlinda Mustafo Chukay tomonidan "YOsh Turkiston" (1929—1939) nashr etila boshladi. Uning sahifalarida Turkistonning madaniy tarixiga oid ko'plab maqolalar va turkistonli adiblarning asarlari o'rin olgan. Jurnal muxarriri Mustafo Cho'qay o'g'lining "Turkiston milliy adabiyoti haqida frantsuz majmuasi nima deydi?" maqolasi Parijda chiqadigan "Le Mois" jurnalining 1931 yil 5 sonida "Turkiston adabiyotida she'r" rukni bilan Fitrat, Cho'lpon, Botu va Elbekning "O'zbek yosh shoirlari" (1922) to'plamidagi

²⁸ Hasani G. Buhara'da intibah// Sirat-I Mustakim-1326

²⁹ X. Ismatullaev. Cho'lpon va Jahon. Haarlem, 2001

³⁰ Abdurauf Fitrat Xind ixtilolchilari, besh pardalik fojea teatri 1923

she'rlaridan namunalar berilishi munosabati bilan yozilgan. Maqolada turkistonli bu shoirlar ijodidagi milliy rux, yangi vazn va ta'sirchan fikrlar kuvvatlanadi³¹. Shuningdek, Mustafo Cho'qayning mazkur majmuada berilgan "Buxoro inqilobi" (1931), "Turkiston va Buxoromi, yo'qsa to'g'ridan-to'g'ri Turkistonmi?" (1932), "Jadidchilik qutqusi" (1935), "Qayg'y va xasrat mamlakati" (1937) maqolalarida xam Fitrat faoliyatining u yoki bu qirralari qalamga olingan³². Shuningdek, Mustafo Cho'qayning mashhur asari "Turkiston sho'rolar ostida" kitobining alohida sahifalarida ham Fitratning jadidchilik faoliyati, adabiy-badiiy ijodiga oid kuzatishlar mavjud³³.

Hozir xorijda yashayotgan o'zbek olimlaridan Fitrat ijodi bilan astoydil shug'ullangan doktor Temur Xo'ja o'g'lidir. Olim "Hozirgi turk adabiyotlari" (1988) tadqiqotining "O'zbeklar va o'zbek adabiyoti" bobida Fitrat ijodiga "O'zbek she'rining Fapb tushunchasidagi "modern" uslubining asoschisi" deb qaraydi. Keyinroq Fitrat faoliyati haqida ma'lumot bergan maxsus xabarnoma "Turkiston olimi Abdurauf Fitratning turkologiya sohasidagi unutilgan asarlari" sarlavhasi bilan Anqarada e'lon etilgan. Unda "Fitratni tom ma'noda ta'rif etmak uchun... bu sifatlardan bir qanchasini keltirishni ma'qul bilamiz: islohotchi, siyosatchi va davlat arbobi, noshir, muharrir, publitsist, hikoyanavis, shoir, dramaturg, adabiyot tarixchisi, adabiyot tanqidchisi, tilshunos, musiqa tarixchisi, folklorshunos olimdir" deb yozadi³⁴ va Fitratning asosiy ilmiy ishlari haqida qisqa tushuntirish beradi. Shu bilan birga allomaning "Sarfi", "Nahv", "O'zbek adabiyoti namunalari", "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", "San'atning manshai", "Axmad Yassaviy", "Atabatu-l-haqoyiq" ("Hibatu-l-haqoyiq" asari turk tilidagi tadqiqotlarda shunday yuritiladi), "Farhodu Shirin" to'g'risida" nomli asarlarining titul varaqlarini o'z tadqiqotiga ilova qiladi. Prof. Temur Xo'ja o'g'lining fitratshunos sifatidagi faoliyati davom etmokda.

³¹ Mustafa Cho'qay. Turkistan Milliy adabiyoti haqida Frantsuz ziyoliysi nima deydi Yap turkistan 1931

³² Mustafa Cho'qay. Turkistan Milliy adabiyoti haqida Frantsuz ziyoliysi nima deydi Yap turkistan 1931

³³ Mustafa Chokay-og'li. Туркестан под властью советов. Париж: «Яш туркистан»б 1935

³⁴ Zrki Validi. Bugungi Turkli Turkistan va yaqin turkiston. Istanbul:1981

Fitrat ijodi va faoliyatini keng ko‘lamda kuzatgan ilmiy asarlardan biri farang olimi Elen Karrer d'Enkousning "Islom va Rossiya imperiyasi: "O‘rta Osiyoda islohot va inqilob (London, 1988) kitobidir. Asarning asl matni 1966 yili "Rus imperiyasi musulmonlari uchun islohot va inqilob" (Parij, 1966) nomi bilan frantsuz tilida nashr etilgan bulib³⁵. Bu asarning janob Kvintin Or tomonidan inglizchaga tarjima qilingan (doktor Maksim Rodinsonning so‘zboshisi bilan birga chop etilgan). Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’rifiy, falsafiy va adabiy xayot haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi bu kitobning umumiy mundarijasi quyidagicha:

I qism. Buxoroda islohotchilikning vujudga kelishi.

1. Buxoro Rossiya tomonidan bosib olinishi arafasida.
2. Rossiya zobitligi: Buxoro kapitalizm va g‘arb bilan yuzma-yuz.
3. Islohotchilik ko‘rinishi.

II qism. 1900—1917 yillar mafkurasini o‘rganish.

1. Turkistonda milliy ko‘tarilish.
2. Buxoroda islohotchilik ildizlari.
3. Maxfiy jamiyatlar davri: 1910—1914.

III qism. Millat va uni qayta zabt etish. 1917—1924.

1. Rus imperiyasining intihosi: Buxoroda urush va inqilob bilan yuzma-yuz
2. Oktyabr to‘ntarishi. Jadidlar va bolsheviklarning kelishuvi.
3. Buxoro xalk jumxuriyati.

Xulosa. Mundarijadan seziladiki, asarda tadqiq etilayotgan har bir davr Fitrat xayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, asosan, adibning serqirra faoliyatini keng yoritishga e’tibor qaratiladi. Asarning sungrog‘ida Fitratning badiiy asarlari va ilmiy faoliyatini yorituvchi kichikroq ocherk ham beriladi.

Olmoniyalik olim Ingeborg Baldauf ko‘pgina tadqiqotlarida XX asr boshlaridagi Turkiston va Buxoro xayotini qalamga olgan. Ingeborg xonim o‘zbek

³⁵ D’Encausse helene Carrere. Islam and Russian Impire Reform and revolutionin Central Asia. Berkely: University of California Press 1988L

millatiga nisbatan qoʻllanilgan "sart", "muslim", "chigʻatoy", "turk" islohotlarining genezislari va ilmiy muomalada qoʻllanilish tarixi xamda Turkiston ASSRning tashkil topishi, 1923 — 24 yillarda sunʼiy ravishda uyushtirilgan davlat milliy chegaralanishiga doir mulohazalarini bayon etadi. Tadqiqot oʻzining oʻrganilish koʻlami va ilmiy ahamiyati jihatidan shunchalar diqqatga sazovorki, oʻzbek xalqining keyingi sakson yillik oʻzgarishlariga sabab boʻlgan voqealar ildizlarini olima chuqur tekshiradi hamda oʻz davridayoqbu "oʻzgarishlarning oqibatlarini koʻrib ulgurgan Bexbudiy, Fitrat kabi ulkan olim va adiblarning ijodini faqat isloxotchi nukta nazaridan emas, balki xalq va millatning kelajagini koʻra olgan xamda millatning bunday ayanchli oqibatlariga kelmasligi uchun kurashgan millat kaxramonlari nazaridan kelib chikib oʻrganadi³⁶. Shuningdek, olima Fitratning "Shaytonning Tangriga isyoni" sheʼriy dramasini olmon tiliga tarjima qilib, sharxlar bilan birga nashr etgan³⁷.

Bulardan tashqari A. Bennigsen va L. Kelkeje, M. Butino, Rakovsko-Xayston, Y. Benzing, J. Souper, Adib Xalid kabi Gʻarb tadqiqotchilarining ishlarida ham, Chigʻatoy Kuchar, Ertugrul Yaman, Yusuf Avji singari turk olimlarining asarlarida jadidchilik masalalari bilan bir qatorda ulugʻ adib va olim Abdurauf Fitrat faoliyati aks etganini koʻramiz³⁸.

Biz yuqorida keltirgan manbalar, tadqiqot va maqolalar Fitrat faoliyatining hamma tomonlarini toʻla qamrab olmasligi, ularning ayrimlarida faktik chalkashliklar yoki oʻsha davr matbuotida yozilgan soxta maʼlumotlarga ishonish kabi qusurlar uchrashi mumkin. Shu bilan birga, bu xorijiy fitratshunoslikning shu kunlarga bizga maʼlum bulgan ayrim jihatlari, xolos. Bizga nomaʼlum yana qancha manba va tadqiqotlar boʻlishi shubhasiz. Fitratning siyosiy va adabiy faoliyati xorijda shunchalik keng koʻlamda, nisbatan chuqur oʻrganilayotgan ekan, biz, uning maʼnaviy merosxoʻrlari ne uchun olimning ilmiy-adabiy faoliyatini chuqur oʻrganishga kirishmaylik! Ayni mana shu bilmaslik dardidan tezroq

³⁶ Ingeborg Baldauf. Some thoughts on making of the UzbekNation. Berlin 1991

³⁷ Ingeborg Baldauf. Some thoughts on making of the UzbekNation. Berlin 1991. Vol 32 n 1 79 -96

³⁸ Beningsen A. Chantal Lemercier-Quelquejay. La presse et le moument national ches les Musilmans 1920.

Moution 1964: Souper John Two banned Uzbek writers to be republished Ankara 1997

qutilish uchun xam allomaning xech bo'lmaganda asarlari dunyosiga berilishimiz, ularni o'rganish barobarida xalqqa tashviq va targ'ib etishimiz zarurdir.

II.2. A. FITRAT HAYOTI VA IJODINI XORIJDA O`RGANILISHI XUSUSIDA

XX asr o`zbek adabiyoti namoyandalarining ijodi ba`zan sobiq ittifoq olimlari, ba`zan rus olimlari tomonidan o`rganildi; maqolalarida, xotiralarida e`tiroflari berildi. Bundagi e`tiroflar, xususan, Fitratshunoslik doirasidagi fikr-muloxazalarda o`zbek ma`rifatchiligi va roman yozish vujudga kelishi katta voqea ekani aytiladi.

Masalan, Turk olimi Ayxan Chelikbay 2001 yili Qirg'izistonda nashr etilgan «O`zbek adabiyoti» kitobida: Abdugauf Fitratning “Tilimiz” she`rini nashr ettiradi va unga qo`yidagi ta`rifni beradi. “Abdurauf Fitrat Buyuk O`zbek Yazarı, Bilim ve Devlet Adamı”.

Bundan tashqari Amarikaning Karleton universiteti professori Adib Xalid o`zining “*The Politics of Muslim Cultural Reform. Jadidism in Central Asia*”(Madaniy islox siyosati. Markaziy Osiyoda jadidizm) kitobida Fitrat xaqida qo`yidagi fikrlarini aytadi:

“The most famous Central Asian to study in Istanbul, however, was Fitrat (1886-1938), who spent the tumultuous period between 1909 and the summer of 1914 in Istanbul. The son of a merchant who had traveled extensively in the Ottoman empire, Iran, and Chinese Turkestan, Fitrat attended the Mir-i Arab madrasa in Bukhara, but in 1909 the Tarbiya-yi Atfal (Education of Children) society gave him a scholarship to study in Istanbul. Fitrat's years in Istanbul were formative, although the precise details of his activities remain frustratingly elusive. During this time, he published his first three books, at least two of which (Debate between a Bukharan Mudarris and a European and Tales of an Indian Traveler) achieved great popularity back in Central Asia. He first appeared in print the Islamist newspaper Hikmet, published by Sehbenderzade Filibeli All Hilmi, a prominent Islamist whose difficulties with the C.U.P. government led to the closure of the newspaper on several occasions; Fitrat also contributed to Sirat-i Müstakim, the flagship Islamist journal edited by Mehmet Âkif (Ersoy)”

Bunda u Fitratni Istambulda taxsil olganini, uninig kelib chiqishi, Turkiyadagi ilm fanga intilishlari, yozgan xikoyalari va gazetagi faoliyati xaqida yozadi.

Yana bir ingliz olimi Mark Dikens “**THE UZBEKS**” kitobida jadidchilar xaqida to`xtalib o`radi. Ular xaqida qo`yidagilarni keltiradi;

*“During the first years of the Soviet period, Uzbek writers, many of them former members of the **Jadid** movement, played a major role in helping the Bolsheviks consolidate power in Central Asia. Some of these, such as Niyazi, who headed up the Uzbek Union of Godless Zealots, became the victims of fellow Uzbeks angered at the changes that Communism brought to their way of life.*

Others, such as Abdalrauf Fitrat, Abdullah Qadiri (1894-1939), and Abdulhamid Cholpan (1898-c.1938) along with many other members of the Uzbek intelligentsia, were subsequently liquidated in the Stalinist purges of the 1930's, due to their pan-Turkic and even anti-Russian sentiments.

*Prior to the twentieth century, drama did not play a significant part in Uzbek society. Wandering jesters, bards, itinerant comedians and even puppeteers who acted out short roadside dramatic scenarios were not unknown before this time, but it was only under the **Jadid** reformers that drama began to be institutionalized in the first decade of this century. Many of these **Jadids** continued to be involved in the medium under the Bolsheviks. Writers such as Fitrat, Cholpan, and Niyazi were among these. As was the case with Uzbek poetry and novels, nationalistic sentiments in some of the early works were criticized by the regime and many of the playwrights subsequently vanished under Stalin”.*

Bu so`zlari bilan Dikens Niyoziy haqida yozib u sovetlarning o`zbek xudosizlar tashkilotiga rahbarlik qilgani va g`azablangan xalq tomonidan o`ldirilganini aytadi va Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho`lponlar Stalin repressiyasi natijasida qurbon bulganini aytadi. U Adiblarimiz ijodi xaqida ijobiy fikrlarni keltiradi. Bu asarlar sovet tuzumi nuqsonlarini tanqid qilgani uchun Stalin davrida ular yo`qotilganini aytadi. Ma`lumki, Abdurauf Fitratning«Hindistonda bir

farangi ila buhoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi» dramasi rus tiliga ham tarjima qilingan: "Fitret (Fitrat) buxarets. Spor buxarskogo muderrisa s evropeytsem iz Indii o novometodnix shkolax («Istinniy rezul'tat obmena misley»). Pervoe izdanie. Napechatano v Stambule, v musul'manskoy tipografii. S persidskogo perevel polkovnik YAgello. Ne podlejit oglasheniyu. Tashkent, 1911".

«Hindistonda bir farangi ila buhoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munarasi» ikki pardali satirik p'esa sifatida Samarkand va Toshkent teatrlarida sahnaga qo'yilgan. Bu xaqida M. Rahmonov "O'zbek teatr tarixi" kitobida ma'lumot bergan.(Toshkent, «Fan», 1968, 280-bet). Fitrat asaridan so'ng ayni mavzuda Xoji Mo'yinning «Eski maktab yoki YAngi maktab» (1916), Xurshidning «Jadid va qadim» (1919) asari ham nashr etilgandir.

«Hindistonda bir farangi ila buhoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munarasi» haqida yigirmadan ortiq taqriz va maqolalar bitilgan bo'lib, ularning ba'zilarini keltiramiz:

1. Mahmudxo'ja (Behbudiy). Munozara haqqida. 1912 yildagi o'zbekcha nashriga so'ngso'z tarzida chop qilingan (maqola 1911 yili «Turkiston viloyatning gazet»da ilk bor e'lon qilingan edi);

2.V. B. Andreev. Novie techeniya v Buxare. «Turkistanskije vedomosti», 1916,113, 15, 20 oktyabrya;

5. elen Karrerd 'Enkaus. Islom va' rus imperiyasi. O'rta Osiyoda islohot va inqilob. Parij, 1966 (farang tilida). Qayta nashri: London, 1988 (Maksim Rodinson • tarjimasn). 99—118-betlar (ingliz tilida);

6. E. Olvort. O'zbek adabiy siyosati. Gaaga, 1964, 53—109-betlar (ingliz tilida Xisao Ko'matsu. Fitratning «Munozara»si xususida qaydlar. Ankara universitاسi bosmaxonasi, 1911, 157—168-bet. («SHarqtillari» to'plamida, turk tilida). Qayta nashri shu muallifning «20 asr boshlarida O'rta Osiyoda turkchilik» kitobida, Anqara, 1993, 1—18-bet;

7. e. Karimov. Razvitie realizma v uzbekskoy literature. T. 1975, s. 91—126;

8. G. Raximova. «Munozara» — uygʻonish darakchisi. «Oʻzbekiston adabiyotg sanʼati» T.. 1989, 29 dekabrʼ.

9. H. Boltaboev. Tarjimondan, «SHarq yulduzi j., 1997, 1-son, 119-120-bet.

Bundan tashqari Fitratning “**Hind Sayyohi Bayonoti**” asari «Abd ar-Rauf» imzosi bilan 1912 yili (hijriy 1330) Istanbulda «Bayonotn sayyohi hindi» nomi ostida fors-tojik tilida chop etilgan. Oradan bir yil oʻtmayok, Samarqandda rus tiliga tarjima qilinib, quyidagi unvonda nashr qilingan: Abd ar-Rauf. Rasskazi indiyskogo puteshestvennika. Buxara kak ona estʼ). Ushbu asarni fors tilidan A. N. Kondratʼeva oʻgiradi va 1913yili Samarkanddagi “Maxmudxoʻja Behbudiy” nashriyotida bosib chiqaradi. Asarning kayta nashri 1988 yili amalga oshirilgan. Dastlab Tojikistonda «Sadoi IIIapq» jurnalining 1988 yil 6-sonida forsha-tojikcha matn juzʼiy qisqartirishlar bilan bosilgai. Soʻngra asarning 1913 yilgi ruscha tarjimasi asosida qisqa varianti Toshkentda nashr etildi: Abdurauf Fitrat. Rasskazi indiyskogo puteshestvennika. Buxara kak ona estʼ. «Zvezda Vostoka», 1990, №7, s. 130—143. (predislovie i publikatsiya Xamnda Ismailova).

Nihoyat 1991 yili asarning oʻzbek tilidagi tarjimasi eʼlon qilindi: Abdurauf Fitrat. Hind sayyohning qissasi. «Sharq, yulduzi», 1991, 8-son, 7—39-bet. U 1988 yilgi Dushanbe nashri asosida Hasan Quadratullaev tomonidan amalga oshirildi. Biroq uni asarning Istanbulda chop etilgan ilk nashri bilan qiyosan oʻrganganimizda koʻplab qisqartirishlar borligi maʼlum buldi. Natijada qissani qayta tarjima qilishga (mutarjim H. Boltaboev) toʻgʻri keldi. Qurʼoni karim va Hadisi sharifdan keltirilgan oyat va hikmatlarning hozirgi yozuvdagi oʻqilishi bilan birga zohiriy tarjimasi ham berildi.

Ushbu asar haqida quyidagi tadqiqot va taqrizlar eʼlon qilingani maʼlum:

1. Klimovich. Islam v TSarskoy Rossii. M., 1936, s. 171—216;

2. Olvors. Sovet Oʻrta Osiyosida milliy masala. Nʼyu-York, 1973, 143—150-betlar (ingliz tilida).

3. Nazarov. Fitrat maʼrifatining gultoji. 1991, «SHarq yulduzi». 8-sop, 8—9 betlar.

Qiziq xolat. Aynan usha tarixiy davrda adibga naqadar qiyin bo'lganini tasavvur etish mumkin. Ichkaridagilar uni «millatchidan olib, «millatchi»ga solgan bo'lsalar, tashqaridagi bir «millatsevar» kishi o'z talqinlarida adibni «bolshaviklarga sotilgan», tarix oldida buyuk xiyonat qilgan xiyonatchiga chiqardi...

B.Xayit sobiq ittifoqdagi chiqishlardan farqli o'laroq ayrim mulohazalarni bildirdi.

Abdulla Qodiriyning ijodi na «sovetlar birligida va na Ovrupada» mukammal o'rganilmayotganini aytdi.

1. B.Xayit fikricha, adibning o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi ekanligini har kim har doim zikr etadi. «Lekin sovet adabiyotpgunoslari, uning mafkura masalasida ayblaydilar, - deya yozadi u va I. Sultanov fikrlariga piching aralash murojaat etadi, chunki u «jadidchilik harakati ta`siri ostida qolgan, Turkistonning Rusiya tarafidan qo'shib olishganini, taraqqiyparvarligini sezmagan va sinfiy kurashni o'z asarlarida yaqqol ko'rsata bilmagan» emish».

2.Adib oqlangandan keyin, albatga, uning asarlari nashr qilina boshlandi.

XX asr jamiyatida bir-biriga muxolif bo'lgan ikki lager ideologlari beshta adabiy-tarixiy voqelikka ikki xil nazar bilan qaradi. G'oyaviy kurash maydonida bu ideologlar orasida murosaga kela olmaydigan masalalar bor edi. Rus bosqinchilariga, jadidlarga, Cho'ulpon, Fitrat va shu jumladan, Qodiriyga munosabat masalasi yomonlashdi.

Zotan, xorijda ushbu masalalarga o'z munosabatini bayon etgan olimlardan biri Edvard Olvort edi. Uning «O'zbek adabiy siyosati» nomli kitobi bor. Olim unda jadid adabiyotiga jiddiy e'tibor qaratadi va umuman to'g'ri qarashlarni ham ilgari suradi. Mafkuraviy-siyosiy adabiyotshunoslik namunasi bo'lgan «O'zbek adabiy siyosati» kitobida Abdurauf Fitrat nomi bir necha o'rinda, ya'ni Behbudiyning «Padarkush»iga taqlidan «Baxtsiz kuyov» dramasini yozganligi, garchi Abdulla Qodiriy birinchi o'zbek romannavisi bo'lsada, diqqat-e'tibordan chetda qolib kelganligi tilga olinadi.

Bu fikr-mulohazalar sho'ro adabiyotshunosligidan bir oz farq etar edi, ammo Abdurauf Fitratning muayyan asari maxsus talqin qilinmaydi va adabiyotshunoslikning, bunday o'zak masalasi bu tip olimlar zimmasiga tushmas ham edi. E.Olvortning kitobidagi fikrlari bilan ham sovet olimlari hisob-kitob qilishga majbur bo'ldilar.

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, agar xorij olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar sovet adabiy siyosatiga mos kelsa, albatta, inobatga olinar va yuksak e'tirof ramzi ularoq, maqolalarda undan iqtiboslar keltirilar edi.

1975 yili Amerikaning Kolumbiya universitetida «Transitional Central Asian literature: Tajik and Uzbek prosefiction 1909 to 1932», ya'ni «O'rta Osiyoning o'tish davri adabiyoti: "1909 yildan 1932 yilgacha tojik va o'zbek badiiy prozasi» nomli falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun bir ilmiy ish ximoya etiladi. Uning muallifi e.Olvortning shogirdi eden Nabi ismli olima edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ancha faktlarga boy va xolis yozilgan bu dissertatsion ish markazida, garchi, o'sha davrda o'nlab ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa ham, asosan Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy turadi. Dissertant har bir ilmiy masalani yoritishga intilar ekan, shu ikki ijodkor hayotiga, yozgan asarlariga murojaat etadi. Dissertatsiya 14 bobdan, 240 sahifadan iborat.

Shuningdek, mazkur qiyosiy uslubda yozilgan tadqiqotda Abdulla Qodiriyning «Kalvak maxzum...» va «Mexrobdan chayon» asarlari, ularning jozibali tili, o'zbeklar tarixidagi urug'larga e'tibor berganligi, siyosatga va katagon xamda keyinchalik o'zgargan siyosatning adibga munosabatlari xususida xam kator fikrlar bor. Tadqiqotchi umuman, Abdulla Qodiriy ijodini biladi, o'z ishida X.K,odiriy, Fitrat, G'afur G'ulom, X.Olimjon asarlariga, ba'zan I.Sultonov, V.Zoxidov, L.Kayumov, U.Normatov, S.Mirvaliev, N.Vladimirova, R.Inogomov kabi olimlarning kitob va makolalariga, asosan esa, ustoz e.Olvortning «O'zbek adabiy siyosati» kitobiga murojaat etadi.

Jadidchilar ijodining Amerikadagi muxlisi X.Murfi 1992 yilda «Urta Osiyo musulmonlari. O'zlikning ifodalanishi va o'zgarishlar» nomli to'plamda «Abdulla

Qodiriy va bol'sheviklar. Isloxdan inkilobgacha» degan makola bilan katnashadi. Olim bunda adibning «Baxtsiz kuyov», «Juvonboz», «Jinlar bazmi», «Tinch ish», «Ogam va bol'shevik» singari bir kator asarlarini talkin etish jarayonida Abdulla Qodiriyning ijtimoiy karashlarini urganadi Olnm fikricha, Abdulla Kodiriy ba`zi mulla-pmomlarni tankid etgan, ammo, u xech kachon islom diniga karshi ezmagan. SHuningdek, adibning ijtimoiy karashida jpmiyatni islox yuli bilan to`zatib bulmaydi, balki pikiiobiy yul bilangina jamiyatdagi yomon odatlardan

Shuni aloxida ta`kidlash joizki, G'arb olimlari, umuman, xorijlik o`zbekshunoslarning 90-yillarda yozgan ilmiy ishlari 60-70-yillardagiga nisbatan chukurroq Mafkuraviy-siyosiy talkinlarga qaraganda qiyosiy-ma`rifiy talqinlar ko`prok ko`zga tashlanadi.

Masalan, bu o`rinda o`zbek adabiyotshunoslariga yaxshi tanish olmoniyalik olima, xozirda Gumbold universitetida ishlayotgan professor Ingeborg Baldauf xonimning «Haqiqat axtarib» degan maqolasini eslab o'tish mumkin. Mazkur maqola Bambergdagm 1990 yili o`tkazilgan sharqshunos olimlar anjumanidagi ma`ruza matnidir. Olima bunda muayyan bir falsafiy tushuncha - xaqiqatning evrilishlarini, har davrda haqiqat turli mohiyat tashiganligini, shunga ko`ra har zamonning o`z haqiqatlari bo`lishligini turli o`zbekcha matnlar ustida tadqiq etadi. «Haqiqat» tushunchasi «jadidchilik, inkilobchilik, millatchilik va g'ayridinchilik ruhidagi matnlarda» turlicha aks ettiriladi. I.Baldauf bu fikrni Maxmudxuja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Xamza Xakimzoda Niyoziy, Abdulxamid CHulpon, SHokir Sulaymon va Abdulla Qodiriy singari siymolar ijodidan olingan iktiboslar orqali isbot etadi.

II.3. Abdurauf Fitrat ijodiga xorijlik olimlarning qarashlari

(Amerikalik olim Yedvard Ollvort va Yapon olimi Xisao Ko‘matsu tadqiqotlari xususida)

Sobiq sho‘rolar davrida "falsifikator" nomi bilan yuritilib, xorijiy matbuotda paydo bo‘lgan xar bir maqolaga qarshi uyushtirilgan "chiqish"larning qahramoni (ehtimol, shuning uchunmi) mashhur amerikalik turkshunos olim Edvard Ollvort asarlaridan deyarli bexabarmiz. Istiqlool sharofati tufayli o‘zbek adabiyotshunoslari amerikalik olimning ayrim asarlari bilan tanishib, bu asarlarga millatimizga bo‘lgan chuqur hurmat singgani va adabiyotimizning jaxon miqyosida barqaror bo‘lishida xizmati borligini angladik. Xorijda chuqur va ko‘lamli o‘zbekshunos sifatida tanilgan Kolumbiya universitetining professori Edvard Ollvortning yigirmaga yaqin tadqiqotlarida Abdurauf Fitrat olim va adib sifatida tilga olinadi. Olimning "O‘zbek adabiy siyosati" (Gaaga, 1964), "Markaziy Osiyoda nashr ishlari va millatchilikning o‘ssishi" (Nyu-York, 1965), "CHor Markaziy Osiyosida "millat" g‘oyasi" (Nyu-York, 1968), "Sovet millatchiligining muammolari" (Nyu-York, 1971), "Sovet Markaziy Osiyosida milliy masala" (Nyu-York, 1973), "Sovet Markaziy Osiyosida etnik guruhlanishning nihoyasi" (Vashington, 1982), "Buxorolik Abdurauf Fitratning argumentlari" kabi kitoblari va "Turkistonda milliy guruxlanishni qidirib" (1917, mart — 1922, sentyabr), "Bilim o‘chog‘i:

Turkiston muxtor jumxuriyatida chikadigan vaqtli nashr³⁹" kabi maqolalari qatag‘on tufayli yetarli o‘rganilmay kelgan ayrim mumtoz adabiyot namoyandalari va jadidchilik mavzusi bilan bog‘liq. E. Ollvort 1990 yili "Zamonaviy o‘zbeklar: XIV asrdan hozirgacha madaniy tarix" kitobini nashr ettirdi. Ushbu kitob milliy istiqloolga yuz tutgan o‘zbek xalqiga qiziqish ortgan ushbu kunlarda xorijiy mutaxassislar tomonidan adabiy-ilmiy qullanma sifatida foydalanilmokda.

Amerikalik olim E.Olvort ko‘p yillardan beri Fitrat biografiyasi, ijodiy faoliyati, O‘rta Osiyo, xususan Turkistonda istiqlool, ozodlik g‘oyalarining qaror topishi, shakllanishidagi o‘rni masalalarida keng qamrovli tadqiqotlar olib

³⁹ Edward Allworth. Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present / A Cultural history. - Californiya: Hoover Institution Press Stanford University, 1190 , Edward Allworth. "Uzbek litrary politics" London-Paris. 1964

bormoqda. Uning Berlinda nashr etilgan "Fitratning ilk ijodi va faoliyati; buxorolik jadidchi: Fitrat asarlari tahlili va tartibi" nomli kitobi mana shunday tadqiqotlar qatoriga kiradi.

Xorijlik o'zbekshunos mazkur tadqiqotida H. Boltaboev, I. G'aniev, N. Yo'ldoshev, va turk olimi Yusuf Avjilar tayyorlagan Fitrat asarlari bibliografiyasiga qo'shimchalar kiritib, o'zbek – xorij olimlari tadqiqotlaridagi Fitratning nafaqat yo'qolgan balki nashr etilgan asarlari nashrlari xronologiyasi bilan bog'liq chalkashliklarga aniqlik kiritgan va ilk marotaba Fitrat asarlari alfavitli bibliografiyasining to'liq shaklini taqdim etgan. O'zbek va turk olimlari tayyorlagan bibliografiya dastlabki manbalar qatoriga kirsa-da, ularni yagona manba sifatida qabul qilib bo'lmasligini E. Olvort quyidagicha izohlaydi: "Tarixiy hujjatlar va birlamchi manbalar A. Fitratning o'smirlik yillari va siyosiy – ijtimoiy faoliyati haqida ma'lum darajada ma'lumot bersalar-da, lekin u haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun yetarli emas".

Jadid adabiyoti va uning madaniy tarixdagi o'rnini aniqlash tadqiqotchining doimiy tahlil markazida turgan mavzulardan. Muallif Fitratni "Bexbudiyning shogirdi" (jadidchilikdagi) sifatida tanishtirar ekan, uning Istanbulda nashr etilgan va xorijda mashhur asari "Munozara"ga e'tibor qaratadi: *"Buxorolilarga mo'ljallangan bu asar o'z xalqining saqlanib, yashab qolishi uchun qiziqqan har bir musulmon tinglovchisiga foydali" degan xulosaga kelish bilan birga, "Munozara" ning tarkibi va ma'nosi aqlli yumor hamda yuqori adabiy usul bilan emas, tiniq so'z va mantiqiy tushuntirish bilan sug'orilgan edi. Shuning uchun muallif adabiy timsollar vositasida emas, balki mantiqiy dalillar bilan ishontirishga xarakat kiladi"* deb yozadi. Tadqiqotchi bu bilan adibning badiiy obraz yarata olmaganiga ishora qilayotgani yuk, asarning maxsus o'quvchilarga qaratilganiga ishora kilib, ularga xos usulda jadidchilik g'oyasi targ'ib qilinayotganini asoslaydi. Chunki mumtoz adabiyotda munozara xaqida fikr yuritilganda, odatda, "Ot bilan Eshak, Kamon bilan o'k, Nasha bilan May baxsga kirishardi", Fitrat asarida esa buxoroli Mudarris bilan ovrupali sayyoh Farangi mubohasasi tufayli, tadqiqotchi nazarida, madaniy turmushning ko'p qorong'i

jihatlarini yoritilib berilganini, faqat yoritilish bilan cheklanmay, bunday jaholat va zulmatdan qutulish yo‘llari ham ko‘rsatilganiga ishora qilinadi.

Fitrat asarlarining nashrlari xronologiyasi bilan bog‘liq xilma-xilliklarni hisobga olganda o‘zbek va amerika olimlarining ushbu ta’kidlari o‘rinli. Xususan, muallifning ilk asari hisoblangan birgina “Munozara” nashri tasnifida ham yetarlicha chalkashliklar mavjud. B. Qosimov “Munozara” ni 1909 yilda nashr etilgan deb ta’kidlasa,, fitratshunos olim H. Boltaboev asarni 1909 yilda yozib tugatilgan va 1911 yilda nashr etilgan, degan fikrni qayd etadi. Bunday holatlar boshqa ikkilamchi manbalarda, xorij olimlari tadqiqotlarida ham uchrab turadi.

Ikkinchi bir jihatdan Fitrat faoliyati bilan bog‘liq bunday muammolar uning ijtimoiy – siyosiy va adabiy oqimdagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmaydi, degan tasavvur ham uyg‘otishi tabiiy. Lekin har qanday holatda ham yozuvchi asarlarining har bir parchasi nashrlari tartibi, tasnifi, xronologiyasini to‘liq va to‘laqonli dalillar asosida belgilash va qat’iy xulosalarga kelish quyidagi masalalarning oydinlashishini ta’minlaydi: birinchidan, islohotchi – yozuvchining ijtimoiy – siyosiy va madaniy o‘zgarishlardagi faoliyatini davrlashtirish, rivojlanish darajasi va bosqichlarini belgilash; ikkinchidan, uning dunyoqarashi o‘zi yashayotgan jamiyatga, jamiyat psixologiyasi va siyosiy -ijtimoiy sotsial muhitga bog‘liqlik darajasini aniqlash;

uchinchidan, o‘sha davrga xos bo‘lgan “yozuvchi psixologiyasidagi fikriy yo‘nalishlar” evolyutsiyasini belgilash; to‘rtinchidan, davr voqea-hodisalari bilan bog‘liq har bir detal yoki kartina islohotchi — yozuvchi ongida sintezlanishi va adabiyot oqimida aks etish darajasini aniqlash; va beshinchidan, yozuvchi shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishi, ijodidagi o‘sish, o‘zgarishlar, u yoki bu asarining yozilish tarixi haqidagi talqinlarni haqqoniy ifoda etish. Amerikalik olim masalani ochiq qoldirmaydi, ma’lum faktlar asosida uning yechimni topishga harakat qiladi. Jumladan Fitratning “Qon” (yoki “Muqaddas qon”) besh pardalik tragedik dramasi 1921 yilda yozilgan deya xulosaga keladi. H. Boltaboev bu dramatik asar taqdiri haqida yana ham mavhumroq tasavvurga egaligini, asar 1921 yilda sahnaga chiqqanligini ta’kidlaydi.

Amerika tadqiqotchisi mazkur risolasida Fitratning siyosiy, ijtimoiy va madaniy masalalar bilan bog‘liq faoliyatini uch davrga bo‘lib tasnif qiladi. Uning ta’kidlashicha har uch davrda Fitrat madaniyat va siyosat bilan bog‘liq keng qamrovli asarlar yaratgan. Muallif yaratgan asarlar Markaziy Osiyo madaniyati va ayrim vaziyatlarda siyosati tarixining rivojlanishida to‘laligicha aks etgan.

E.Olvortning Abdurauf Fitrat ijodiy faoliyati bilan bog‘liq xulosalaridan uni o‘z davrining madaniy markeri sifatida ham qabul qilishimiz mumkin bo‘ladi. Madaniy markerlar til, urf odatlar, din, vatan, ijtimoiy turmush, iqtisod, siyosat, tarix va millat o‘tmishi bilan chambarchas bog‘liq jamiyatning asosiy quroli hisoblanib, har qanday mushkul vaziyatlarda millatni saqlab qolish, madaniy me’rosimizni kelajak avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ular millat o‘zligini rivojlantirishda, uni qayta qurish jarayonini yengillatishda asosiy mas’uliyatni gardaniga olgan shaxslar hisoblanadi. E. Olvortning Fitrat asarlari sinxronik klassifikatsiyasi va tahlil metodlarininng besh kategoriya asosidagi tasnifiy xulosalari Fitrat xususidagi fikrlarimizning to‘g‘riligiga asos bo‘la oladi, deb o‘ylaymiz.

E. Olvort har qanday yozuvchining, jumladan Fitrat asarlarida bo‘y ko‘rsatgan ma’naviy- ijtimoiy sohadagi chuqur mulohazalari, o‘ziga xos idrok uning individual o‘tmishi va temperamenti asosida kashf qilingan, degan xulosaga kelganligi bois u “Fitratning ilk ijodi va faoliyati; buxorolik jadidchi: Fitrat asarlari tahlili va tartibi“ nomli kitobida uning avtobiografiyasiga, hayotida yuz bergan har bir siyosiy- ijtimoiy voqeaga jiddiy e’tibor qaratadi. Asarlari yaratilishi tarixi, ularga sabab bo‘lgan vaziyatlar, voqealarni izohlashga harakat qiladi. Masalan, u “Qiyomat” asarining yozilish tarixini bolsheviklarning Markaziy Osiyodagi noto‘g‘ri boshqaruv tizimi va Fitratning ularga bo‘lgan nafrati bilan izohlaydi. Mazkur asarning yaratilishi Fitratning Buxorodan surgun qilingan davriga to‘g‘ri keladi. Uning “Hurriyat” gazetasi 1917 yil 49- sonida (7 noyabr) gi “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi-bolsheviklar balosi” nomli maqolasi, rus bolsheviklari hokimiyatni qo‘lga olganlaridan keyin barcha milliy imtiyozlar qog‘ozda qolib

ketganligi, va “YUrt qayg‘usi” (Temur oldinda) dagi bolsheviklarga munosabatini hisobga olganda Olvortning xulosasi to‘g‘ri, deb hisoblaymiz.

Fitrat asarining xorijiy olim talqinida jamiyatdagi ikki muhim xodisaga (musulmoncha ayttanda, ikki gunox ishga) e‘tibor qaratiladi. Ulardan biri, Muxammad (s.a.v.) hadislarini noto‘g‘ri talqin qilish, uning tub ma‘nosini tushunmaslik oqibatida xalqni jaholatda tutib turish, ikkinchisi, har qanday davlatga ham xavf solishi mumkin bo‘lgan "korruptsiya"dir. Uyushgan jinoyatchilik amirning yaqin amaldorlari tomonidan amalga oshirilayotganiga, bu millat va xalq tanazzuliga sabab bo‘layotganini anglatgan adib maxorati tan olinadi.

E. Ollvort "Hind sayyohi bayonoti" asarini tahlil qilar ekan, unda "Fapb nigohi" ustunligini sezish mumkin. Masalan, asardagi ilmi toliblar haqiga xiyonat qilayotgan mudarrislar, shariat sudi nomidan qilinayotgan qonunbuzarliklar, islomda gunoh sanalgan "foiz olish" (sudxo‘rlik) va muhtojlarga zakot bermaslik oqibatida ular turmushining nochor ahvolga tushishi kabilarni kuzatar ekan, Fitratni mamlakatdagi sotsial masalalarning yechimini izlagan muallif sifatida ko‘radi.

Tadqiqotchi Fitratning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatiga yuqori baho beradi, uning Alisher Navoiy haqidagi ishlarini, mumtoz adabiyot namunalarini jamlagan majmualarini tahlil qilish orqali Fitrat tomonidan o‘zbek adabiyoti tarixini tizimli suratda yoritilganiga va dastlabki "Turkiston va Buxoroda yosh buxorolilar tarixining qorong‘i sahifalari" maqolasida yosh buxorolilar faoliyatiga bag‘ishlangan F. Xujaev, S. Ayniy, M.Muxammadjonov kitoblarining sho‘ro davridagi nashrlarida birmuncha qisqargan o‘rinlarini to‘ldirishga harakat kiladi. Ayniksa, S. Ayniyning "Buxoro inqilobi tarixiga materiallar" (1921) kitobidan o‘rin olgan, biroq keyingi nashrda ataylab tushurib qoldirilgan Fitrat xaqidagi bobni inglizchaga tarjima etib, maqolasiga ilova tarzida e‘lon qilgani e‘tiborga molik. E. Ollvort janoblarining bunday xayrli ishlaridan yana biri "Markaziy va Yakin Osiyoga doir yozishmalar" majmuasida bosilgan "Buxoroli Abdurauf Fitratning argumentlari" (5 jild 1991, 1—21 betlar, ingliz tilida)

maqolasidir. Olim Fitratning adabiyot va ilm dunyosiga kirib kelishi, dastlabki asarlari, uning faoliyatiga kuchli ta'sir etgan Istanbul (1909—1914) va Moskva (1923—1924) davridagi faoliyatini qiziqarli bayon etadi, adibning bu davrlarda yaratgan asarlarini tekshiradi.

So'nggi maqola keyinroq alohida risola xolida chop etilib⁴⁰, unga Fitrat asarlarining bibliografiyasi ham ilova qilindi. Ushbu bibliografiya shu jixatdan e'tiborliki, unda avval e'lon kilingan Fitrat asarlarining ruyxat va ko'rsatkichlarini e'tirof etgani xolda, xar bir asarni alifbo tartibida keltiradi va uning saqlanish o'rni (ayrim xollarda), nashri haqida imkon qadar tularoq ma'lumot berishga intiladi. Birok Fitratning 191 asari nomma-nom keltirilish bilan birga, aslida nashr etilmagan ayrim asarlari ham (tilga olinish o'rmini ko'rsatgani holda) bibliografiyaga kiritib yuborilgan.

Fitratning ruhiy iztiroblari "Qiyomat" da to'g'ridan to'g'ri aks etgan. U g'oyaviy maqsadini butunlay boshqacha yo'l bilan ifodalaydi. Asarning bosh qahramoni Pochamir (Ro'ziqul) obrazi orqali muallif oxiratdagi hisob kitob jarayonini o'zicha idrok etadi. Bu dunyoda qilingan har bir nobop ish u dunyoda javobini olajak, gunohlarga ko'milgan Pochamir esa jazoga mahkum gunohkor. Asar hayoliy hikoya deb e'tirof e'tilsa-da, yozuvchi o'ziga yaxshi ma'lum bo'lgan fakt asosida xalq psixologiyasiga yaqin kartinalar, obrazlar va qiyofalarni kitobxon ruhiyatiga tez ta'sir qiladigan ko'rinishda (shaklda) tasvirlaydi.

B. Qosimov "hikoyada narigi dunyo voqealarini emas, ular vositasida bu dunyoning g'avg'o-yu sho'rishlarini, Turkistonning oyoq-qo'liga kishan soldirgan jaholat va mutaassiblikni fosh etish, ular ustidan istehzo asosiy maqsad qilib olingan edi", degan fikrni aytgan. Olim o'zi ta'kidlagan bosh qahramonning "Pochamir" ("amir pochcha") deb nomlanishidagi ishoraga asoslanib, uning xulosalarini to'g'ri deb baholash mumkin.

Amerikalik olim tadqiqotidagi bu metodologik asos keng ko'lamli tahlilni ta'minlamasa-da, shaxsiy hayoti bilan bog'liq har qanday voqeani o'rganish uning

⁴⁰ Edward Allworth. Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present / A Cultural history. - Californiya: Hoover Institution Press Stanford University, 1190 , Edward Allworth. "Uzbek litrary politics" London-Paris. 1964

millat manfaati bilan yashash shiori, bu bilan bog‘liq psixologik kechinmalarini asarlarida tasvirlash darajasi namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda Fitratning siyosiy-ijtimoiy va adabiy faoliyatini bir biridan ajratib o‘rganib bo‘lmashligini ham ta’kidlash joiz.

E.Olvortning Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, jumladan O‘zbekiston madaniyati tarixi va adabiyotiga bag‘ishlangan qator ilmiy asarlar yaratganligi ma’lum. Uning 85-yillardan keyingi ilmiy faoliyatidan bexabar ko‘pchilik adabiyotshunos va tarixshunos olimlarimiz bugungacha unga faqat g‘arb “sovetologi”, tarixshunos yoki siyosatshunos olim sifatida qaraydilar. To‘g‘ri, uning Mustaqillik yillariga qadar yaratilgan tadqiqotlariga, huddi bizda bo‘lgani kabi, ma’lum siyosiy- mafkuraviy jarayonlar o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmagan. Lekin E. Olvort Fitrat nasriy asarlari ”Munozara”, (1909 -1911) “Hind sayyohi bayonoti” (1911-12) “Qiyomat”,(1923), “Bedil bir majlisda”(1923), “SHaytonning Tangriga isyoni”, (1924) “Abulfayzxon” (1924), “Ovunchoq” “Mirrix yulduziga” kabi she’rlari, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (1913) dramasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida badiiy asarni tarixiylik printsipida, adabiyotshunoslik me’zonlari asosida tahlil qilib, ijodkorlarning Sovet senzurasidan himoyalaniish va davr uchun muhim ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni targ‘ib qilish uchun foydalangan ko‘p ma’noli, metaforik obrazlarning asl mohiyatini tadqiq etib, badiiy asar zamiridagi haqqoniy tushunchalar mantig‘ini fosh etadi va original topilmalarni kashf qiladi.

Turk olimi Temur Xo‘ja o‘g‘li ustoz E. Olvortning XX o‘zbek adabiyoti, xususan Fitrat va Behbudiylar asarlaridagi analitik tahlilning o‘ziga xos yo‘nalish va tamoyillari xususida to‘xtalib, uning adabiyotshunoslik sohasidagi qobiliyatini ochib bergan. Shu o‘rinda E.Olvortning o‘zbek adabiyoti namunalarini faqat tahlil qilish bilan cheklanmay, ularni birlamchi va ayrim hollarda ikkilamchi manbalardan ingliz tiliga tarjima qilganligini ham ta’kidlash o‘rinli deb o‘ylaymiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, G‘arbona tafakkurga ega olimlar o‘zlariga butunlay yot bo‘lgan Sharqona qarashlarni tarixiylik printsipida tadqiq etganligi, original xuloslari tarixiy haqiqat materialining aniq tahlili va to‘g‘ri bahosini

ta'minlaydi. Olvort tadqiqotidagi bunday sinxronik, statistik tahlil metodi va tasnif usullari Abdurauf Fitratning XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti, ijtimoiy – siyosiy – madaniy muhitdagi intellektual salohiyati va estetik ahamiyati darajasini belgilab berishi bilan birga olim Fitrat yaratgan asarlarning Markaziy Osiyo madaniyati, adabiyoti, siyosati tarixining rivojlanishidagi o'rnini yana bir pog'ona ko'tarilishiga asos yaratdi. Shuningdek, olimning mazkur risolasidagi Fitrat faoliyati va asarlariga o'ziga xos yondashuv printsipi uni mukammal tushunish, u haqidagi tasavvurlarimizni tiniqlashtirish, aprior sistematik qarashlarga barham berish, asarlari nashrlaridagi chalkashliklarga aniqlik kiritish va eng muhimi Fitrat haqiqatini to'laligicha anglashda kichik manba bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

O'zbek jadid adabiyotining xorijdagi tadqiqotchilari haqida so'z ketganda, Tokio davlat universiteti Turkshunoslik markazining rahbari, olim, professor Xisao Ko'matsu haqida to'xtalib o'tish joizdir. Bu inson nafakat o'zbek tili "chig'atoycha"ning sir-asroridan xabardor, balki Turkiston tarixining eng qopong'y nuqtalaridan tortib, uning eng nurli jihatlarini ham yaxshi yorita biladigan olimdir. Xisao Ko'matsuning tadqiqotlari yapon, ingliz, turk, golland, rus, tatar va o'zbek tillarida chop qilingan. U Fitrat haqida Yaponiyada va xorijda birinchi salmoqli monografiya yaratib, jahon turkshunoslari e'tiborini ulug' o'zbek adibiga qaratgan va uning shaxsiga muxabbat uyg'ota olgan tadqiqotchi sifatida tan olinadi.

Xorijiy fitratshunoslar orasida eng izchil va sermahsul olimlardan biri sifatida tanilgan professor Xisao Ko'matsu janoblarining Fitratning "Munozara"si xususida qaydlar" (Ankara, 1981) tadqiqoti yapon va turk tillarida chop qilinib, 80-yillarning boshidayoq jahon turkshunoslarining e'tiborini qozongan edi⁴¹. Olim "Munozara"ning xorijda saqlangan ko'pgina nusxalari, uning o'zbek va rus tillaridagi tarjimalarini qiyosan o'rganib, chuqur sharhlaydi. "Munozara"ga jadidchilik manbalaridan biri sifatida yondashgan olim asar asosida islomchilik,

⁴¹ Hisao Komatsu. Buhara and Istambul. Tokyo. 1999\ Revolutionary Central Asia\ Portraits of Abdurauf Fitrat. Tokio 1996

turkchilik va islohchilik g'oyalarini ko'radi va har bir asosda o'z davrining ijtimoiy-siyosiy manbalari bilan bog'liq holda tekshiradi. Xususan, islomchilik omili haqida so'z yuritarkan, bir tomondan, XX asr boshlari Buxorodagi islom taassubi, buning natijasida yuzaga kelgan ma'rifiy boshboshdoqlik hamda turli xil mazhab va fiqrlar o'rtasidagi nifoqlar (xususan, sunniy va shialar o'rtasidagi 1910 yilgi to'qnashuv) kuzatilsa, ikkinchi tomondan, islom o'lkalarida kechayotgan ma'naviy yangilanishlar, xususan, Jamoliddin Afg'oniy (1839—1897) va Muxammad Abdur (1849—1905) qarashlarining Fitrat kabi turkistonli ziyolilarga ta'siri masalalarini chuqur tekshiradi. Ayniksa, Buxorodagi ahvol haqida 1908—1912 yillarda mufassal xabarlar berib turgan "Sirotu-l-mustaqim" gazetasi va uning sahifalarida buxoroli G'iyosiddin Hasaniy (Xisao janoblari uni Husniy deb o'qigan) maqolalarigacha jiddiy o'rganib chiqqan. Ikkinchi omil turkchilik bo'lib, Fitratning Istanbul faoliyati bilan bog'langani, buxoroli talaba bu yerda Shahobiddin Marjoniy, Abdurashid Ibrohimbek, Ziyo Kukalp, Mexmed Akif Ersuy va boshqa turkchilik mutasaddilarining g'oyalari bilan tanishgani, nihoyat, 1916 yildan bu asosda faol siyosiy harakatga kirishgani ham aytiladi. Islohchilik g'oyalari dastlabki ikki omil asosida islomdagi islohchilik va turkchilik (muallif turonchilik deb atagan)dan ozuqa olgani va Fitrat faoliyatida "Munozara" asosida jadid maktablari muammosi yotganidek, maorifchilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgani kuzatiladi. Yapon olimining ixcham tadqiqoti ortodoks islom islohotchiligi, Buxoroning mustaqilligi, madaniy turg'unlik, omma e'tiqodi va ziyolilarning xalqchiligi kabi ruknlar ostida berilgan. Olim asar "uz qamrovi jihatidan siyosat, maorif, san'at, tarix, iloxiyot kabi yigirmadan ortiq jabhalarni o'zida birlashtirgani", "XX asr boshlari Buxoro va Turkiston xayotidan juda qimmatli manba' xisoblanishini o'rinli qayd etgan. Xatto Fitrat asarining lug'at va so'zlari haqida ham nozik kuzatishlar olib borganki, yapon olimining o'zbek adibi ijodiga bunday izchil va chuqur yondashishi bizning fitratshunoslarimiz uchun xam o'rnakdir.

Bundan tashkari Xisao janoblari "1911—1928 yillarda Buxoro ziyolilari o'rtasida milliy farqlanishning tadriji" (Tokio, 1989) tadqiqotida (asar ingliz tilida

bitilgan⁴²) Fitrat yigirmadan ortiq yunalishda faoliyat ko'rsatgan esa-da, uning uchun asosiy faoliyat yuli adabiyot olimi ekanini juda nozik kuzatishlar bilan isbot etadi. O'z davrida, o'z yurtida topilishi juda qiyin bo'lgan manbalarga asoslanib, Fitratning 10- va 20-yillardagi faoliyatini chuqur o'rganadi, "Munozara" asariga hamda adib faoliyatining "Chig'atoy gurungi" bilan bog'liq davrini izchil kuzatadi. Olim Fitratning ulkan ishlarini ta'kidlash barobarida, uning "O'zbek adabiyoti namunalari" asarini jiddiy tahlil qilib, "Namunalar"ning asl matnda mavjud bo'lmagan "Mundarija"sini tiklashga urinadi.

Fitrat haqidagi tadqiqoti va maqolalarining sintezi sifatida olim 1996 yili "Markaziy Osiyo ixtilolchilari: Abdurauf Fitrat" monografiyasini yapon tilida e'lon qildi⁴³. Ushbu ko'lamli tadqiqot Fitrat faoliyatiga bag'ishlangan xorijdagi birinchi monografiya sifatida ham, yapon ziyolilariga Fitratning istiqbolchilik harakatini namuna sifatida tavsiya etishi bilan ham, fitratshunoslikni yangicha talqinlar va manbalar bilan boyitgan ilmiy manba sifatida ham qadrlidir. Dastlab faqat xorijiy manbalar bilan ish ko'rgan olim O'zbekistonga qilgan bir necha ilmiy safarlari natijasida o'zbek fitratshunosligidagi qarash va talqinlarni jiddiy o'rganib chiqdi, uni birlamchi manbalardagi talqinlar bilan to'ldirdi va xorijiy olimlarning kuzatuvlarini qayta tahlildan o'tkazdi. Olim mazkur monografiyada Fitrat ilmiy biografiyasini yaratish bilan birga fitratshunoslikka doir 250 dan ortiq manba va ilmiy adabiyotlarni keltiradi, tabiiyki, ularning orasida Fitratning vatanida amalga oshirgan ishlari salmoqli o'rinni egallagan. Hozirgi kunda o'zbek fitratshunosligida nisbatan kam fikr yuritilgan davr — adibning talabalik faoliyati hisoblanadi. O'zbek olimlarining ishlarida "dastlab Mirarab madrasasida o'qidi, so'ngra Istanbulda tahsilni davom ettirdi" degan ikki jumla bilan o'tib ketilayotgan bu davrni keng yoritishga harakat qiladi. Ushbu asar ayrim faktlar talqinida o'ta sinchkovlik natijasida bizning nazarimizda ahamiyatsiz sanalgan kichik xodisalarga keng o'rin ajratish, ayrim arab yozuvidagi manbalarni noto'g'ri o'qish

⁴² Xisao Ko'matsu "1911—1928 yillarda Buxoro ziyolilari o'rtasida milliy farqlanishning tadriji" (Tokio, 1989)

⁴³ Xisao Ko'matsu "Markaziy Osiyo ixtilolchilari: Abdurauf Fitrat" monografiyasi

kabi juz'iy sifatlarni soqit qilganda, Fitratning xayoti va adabiy faoliyatiga bag'ishlangan xorijdagi yagona monografik tadqiqoti sifatida baholanishga arziydi.

Shuningdek, olimning ushbu ishlari jiddiy suratda davom ettirilganini 2001 yilda Niderlandiyada e'lon qilingan "Uch jadidchi va o'zgargan dunyo maqolasida ko'rish mumkin"⁴⁴. Triptix shaklida yozilgan uch jadidchi (Ismoilbey Gaspirali, Abdurashid Ibroximbek, Abdurauf Fitrat)ning siyosiy portretini yaratar ekan, muallif bu yo'l boshchilarning millat mustaqilligi yulidagi ilmiy-adabiy harakat va faoliyatlarini qisqa anglatishga uringan. "Uch jadidchi" maqolasi alohida-alohida portret shaklida ko'rilgani bilan ularni birlashtirib turadigan g'oya va ichki kompozitsiya mavjud. Har uchala alloma sobiq chor Rossiyasi davri — mustamlakachilik sharoitida millat ozodligi va mamlakat obodligi uchun dildan kurashgan va o'z faoliyati natijasida millatga o'rnak va saboq bo'larli keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirib ulgurgan edi. "Abdurauf Fitrat" portretida muallifning ushbu mavzudagi avvalgi ishlariga qo'shimcha ravishda Fitrat faoliyatiga siyosiy arbob sifatida qaraydi va uni Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan istiqbolchi sifatida ko'radi.

Doktor Xisao Ko'matsu janoblarining tinimsiz izlanishlari natijasida Fitratning o'zbek olimlari bexabar bo'lgan asarlari "Johilona taassubga misol" ("SHuro" jaridasi, adad 2, saxifa 34), fors tilidagi "Buxoro vaziri Nasrullox bey Parvonachi Afandi hazratlarina ochiq maktub" ("Ta'rufi muslimin", adad 25, jild 2, saxifa 10) kabi asarlari topilishiga ko'mak berganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Albatta, biz bu yerda turkshunos olimning fakat fitratshunos sifatidagi faoliyatining ayrim kirralarini yoritdik, xolos. Biroq olimning yuqorida eslatilgan maqola va tadqiqotlarida bir jihat e'tiborli bo'lib, olim tariximizning qorong'u tomonlarini yorituvchi muxim bir xujjat topadi-da, uni asl manbadagi yozuvi va ilmiy sharxlari bilan birga kitobxonlarga xavola kiladi. Shuningdek, Turkistondagi "Turk Adami markaziyat firqasining Maromnoma va Nizomnomasi"ni ingliz olimi Paksoy muxarrirligida tarjima qilib, zarur sharh va talqinlar bilan Fapb olimlariga havola qilgani ham alohida e'tiborga loyiq ishlardandir.

⁴⁴ Xisao Ko'matsu "Uch jadidchi" va "o'zgargan dunyo" maqolasi

Bunday sarmahsul turkshunosning tadqiqotlari hali o'zbek olimlari tomonidan munosib baholanganicha yo'q. Birgina Sh.Turdievning "Fitrat jahon kezadi" maqolasida olimning ayrim ishlari tilga olinadi va kichik bir maqolada Ko'matsuning ayrim ishlariga baho berilgan xolos⁴⁵. Fitratshunoslikka doir maxsus risola bitgan I. G'aniev ushbu satrlar muallifining "Xorijda fitratshunoslik" maqolasi munosabati bilan ushbu olim nomini tilga oladi".

Yapon professori Xisao Ko'matsuning ulug' adib va alloma Fitrat shaxsiga va uning faoliyatiga munosabatini olimning o'zbek halqiga va uning jahon hamjamiyatidagi o'rniga nisbatan ehtirom sifatida qabul qilinishi lozim.

⁴⁵ Sh.Turdievning "Fitrat jahon kezadi" maqolasi

III-BOB ABDURAUFI FITRATNING INGLIZ TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARI TAHLILI

3.1. Abdurauf Fitratning “Abdulfayzxon” dramasini Shon Tomas Lions tomonidan qilingan tahlili

Abdurauf Fitrat ijodiga boʻlgan qiziqish davrlar oʻtgan sayin orta bordi. Abdurauf Fitrat millatlararo doʻstlik, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat va vafo kabi tuygʻular bilan yoʻgʻrilgan asarlari asta-sekin Evropa diyoriga ham kirib bordi. Abdurauf Fitrat asarlari Evropa mamlakatlari xalqlari tillariga ham oʻgirildi.

Abdurauf Fitrat asarlarining Gʻarbiy Evropa xalqlari tillariga tarjimalari tahliliga kirishar ekanmiz, avvalo ishni Jadidchi shoir va yozuvchimizning asarlarining ingliz tiliga tarjimalari tarixiga nazar solishdan boshlash lozim deb bilamiz. Maqsad jahon Fitratshunosligidek ulkan jarayonda Adib Xalid, Villiam Xannavey va boshqa olimlarning oʻziga xos ulushini aniqlashdir. Abdurauf Fitrat asarlarining inglizcha tarjimalariga oid soʻnggi tadqiqotning yaratilganiga 10 yildan ziyod vaqt oʻtdi. Bu muddatda oʻzbek tarjimashunoslik maktabi katta yutuqlarga erishdi.

Oʻzbekistonda Abdurauf Fitrat asarlarining xorijiy tarjimalari mavzusida anchayin salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, zukko jadidshunos olim Zulxumor Mirzaeva nomzodlik dissertatsiyasida Abdurauf Fitrat asarlarining rus va ingliz tillariga qilingan tarjimalarini taxlil qilib, shoir gʻazallaridagi badiiy sanʼatlarning genetik yaqin va yiroq tillarga tarjimalaridagi qayta yaratilishi muammosiga toʻxtalgan.

XIX asr Evropa Fitrat ijodiga eʼtiborni oʻzgarishidagi yangi davr hisoblanadi. Zero bu asrda tarjimalarga qoʻyilgan talablar oʻzgarib Evropa oʻquvchilariga SHarq Jadid adabiyotini asliyatga yaqin shakl va mazmunda, muallifning buyuk iqtidorini yodga olgan holda taqdim etish zaruriyati va imkoniyati tugʻildi. SHarqshunoslar bevosita asliyatdan tarjimalar qilishga oʻtdilar. “Ingliz tilida gaplashuvchi va Ingliz tilini biladigan barcha kitobxonlarga A. Fitrat asarlaridan ilk bora parchalar oʻgirib, ularni bahramand qilgan zot edvard Olvortdir. Fitrat xayoti va ijodi haqida oʻylash, fikr yuritish, xususan, uning turkiy

va fors tillarida yozilgan asarlariga munosabat bildirish, zullisonayn shoir sifatidagi faoliyati borasida mushohada etish edvard Olvort, Adib Xalid va SHon Tomas Lions ishlarining mag'zi-mag'ziga singib ketgan edi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy-siyosiy, adabiy va madaniy aloqalarining ortishi cababli mumtoz, jadid va zamonaviy adabiyotimiz vakillarining nodir asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilinishi kuchaydi. Jumladan Amerika va buyuk Britaniyada ham jadid, zamonaviy va mumtoz adiblarning asarlari tez-tez nashr qilina boshlandi. O'zbek adabiyotidan namunalar endi jahon xalqlari adabiyoti to'plamlariga kiritildi va ular bir qator olimlar tomonidan tahlil qilina boshlandi.

Bizning bu faslimizda SHon Tomas Lionsning jadidchi adib Abdurauf Fitratning "Abdulfayzxon" dramasi tahliliga to'xtalamiz. Lions Amerikaning Verjina universiteti professori bo'lib, u Fitratning ijodiga ihlos qo'ygan olimlardan biridir. U asar tahlilini Markaziy Osiyo izlanishlariga bag'ishlangan halqaro jurnalining 2000 yildagi 5 nashrida chop ettiradi (*International Journal of Central Asian Studies Volume 5 2000*) va ushbu tahlilga "Abdurauf Fitrat's Modern Bukharan Tragedy"(Abdurauf Fitratning zamonaviy Buxoro tragediyasi) deb nom qo'yadi.

Muallif tahlilini boshida asarga tarif berarkan qo'yidagi gaplarni yozadi. *"Abulfayzkhon, a historical drama written by the Uzbek author Abdurauf Fitrat in 1924, will be examined as a rein vocation of the native past against Soviet colonialism. We will consider this drama as a historical parallel. How Abulfayzkhon represents historical reality is not suspended from the process or representing Soviet colonialism in Bukhara, an ancient Central Asian emirate that was transformed into a quasi-Soviet protectorate after the last amir was overthrown by the Bolshevik military in 1920"*

Ushbu satrlarda quyidagilarni, ya'ni. "Fitratning ushbu tarixiy asari 1924 yili yozilgan bo'lib, sovet mustamlakachilik siyosatiga qarshi yozilgandir. Biz bu drama tarixiy paralleldeb xisoblaymiz. Abulfayzxon tarixiy shaxs bo'lishiga qaramay sovet mustamlakachiligi davrida Buxorodagi jarayonlarda ishtirok

etmagan. Ammo qadimiy Markaziy Osiyo xukmdori 1920 yilda Bolsheviklar tomonidan so'nggi xon ag'darilgandan keyin paydo bo'ladi" ta'kidlaydi.

Bu gaplardan biz Lionsning nafaqat asarni balki Turkiston tarixini qanchalik darajada bilishiga guvoh bo'lamiz. Darxaqiqat Fitratning ushbu asari Adulfayzxon ya'ni, Ubaydullaxonning inisi. Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni haqida edi. U hech qanday real hokimyatga ega emas, kundan-kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lida bir „qo'g'irchoq" hukmdor edi, xolos. Uning davrida keyinchalik mang'itlar davlatining tashkil topishiga sababchi bo'lgan mang'itlar qabilasidan kelib chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bo'lib olgan edi. U vaqtini ko'ngulxushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketdi. Uning etti farzandi bor edi. Mast chog'ida ularni o'limga mahkum etdi. Hali go'dak bo'lgan Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirilib, omon qolgan. Xon deyarli davlat ishlarini nazorat qilmay qo'ydi. SHu tariqa, Buxoroda xon hokimiyati barham topdi. Oliy hokimiyat amalda oliy qo'shbegi bo'lib olgan Jovshon qalmoq qo'lga o'tdi. Markaziy hokimyatning zaiflashuvi feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Xiva, Badaxshon amalda mustaqil bo'lib oldilar. Bu ahvol tashqi dushmanlarning Movarounnahrqa bostirib kirishga qulay imkoniyat yaratdi. Abulfayzxon davrida o'zaro nizolar kuchaygan, mamlakat chuqur iqtisodiy-siyosiy tanazzulga yuz tutgan. Bu davrga kelib xonning ahvoli shu darajaga etib bordiki, uning farmonlari saroydan tashqariga chiqmagan. Nodirshoh qo'shinlarining Movarounnahrqa qilgan yurishlari natijasida Abufayzxon taxtdan ag'darilagn. Muhammad Rahimbiy buyrug'i bilan 1747-yilda Abulfayzxon Mir Arab madrasasi hujralaridan birida o'ldiriladi.

1924-yilda Abdurauf Fitrat unga bag'ishlab "Abulfayzxon" drammasini yaratgan.

SH.T. Lionsning fikricha Abulfayzxon personaji va tasvirlar faqatgina Buxorodagi bo'lib o'tgan voqealar, peysaj va shaxslarga niqob vazifasini o'tagan. Fitrat Buxoro ko'rinishini inqilob davridek tasvirlaydi. Uy qamog'ida saqlab va

1920 yilda qatl etilgan Amir Olimxonni personajini Abulfayzxon obrazi orqali tasvirlaydi.

Muallif ushbu fikrlarini quyidagi satrlarda keltirgan;

*Abulfayzkhon functions not only at the empirical level of historical drama, but re-historicizes and re-realifies by interacting with the "audience's awareness that it is witnessing the enactment of its own past and by assimilating that public knowledge of the past and present in the text. The scene of Bukhara, forever, oppressed by competing oriental despots, a land of intrigue, conspiracy, cruelty and corruption, persists in continuous time, always encompassing the present. Similarly, Amir Said Alimkhon, a victim of the domestic conspiracies of native reformers and the Bolshevik invasion, would be dethroned, separated from his family and forcibly exiled in 1920.*⁴⁶

Bulardan tashqari Lions amirning yon atrofidagi insonlar ya`ni obrazlarga ham parallellarni topadi. Uning fikriga ko`ra Nodirshoxga sotilgan insonlar vazifasini Xon atrofidagi Bolsheviklar tomonga og`ib ketgan zadogonlar deb xisoblagan.

Muallif ushbu fikrlarini quyidagi satrlarda keltirgan;

“And the duplicitous friends who conspire with Nodir Shah against Abulfayzkhon parallel those of Amir Said Alimkhon: those prominent court, religious and mercantile elites who would join the Bolsheviks against the last Bukharan amir”.

Xullas muallif SH.T.Lionsning tahlili o`zbek adabiyotshunoslari oldiga ushbu masala yuzasidan kelajakda bu ikki shaxsni solishtirishda bir qator vazifalarni yuklaydi. Umid qilamizki yurtimizda va xorijda Fitratshunoslik ishlari hali uzoq vaqt davom etadi.

⁴⁶ Shawn Tomas Lyons "Abdurauf Fitrat's Modern Bukharan Tragedy" International Journal of Central Asian Studies Volume 5 2000 “

III.2. Abdurauf Fitratning “Xindistonda bir farangi ila Buxorolik bir muddarisning bir nechta masalalar xamda usuli jadida xususida qilgan munozarasi dramasini tarjimasi xususiyatlari

